

 **18-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun**



O‘zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil

16-noyabr  
payshanba

№ 46 (4636)

# Postda Ha nocty

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz) / E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

## BAYROG‘IN ASRAGAN MILLAT – MANGUDIR!

*Yelkasi yer ko‘rmas o‘zbek polvoni,  
Bayrog‘i yuksalsa, yoshlanar ko‘zi.  
O‘sha chog‘ yuksalar uning iymoni,  
Yuksaladi ruhi, yuksalar o‘zi.*

*Bayrog‘im – dilimda parpiragan cho‘g‘  
Iftixorim shudir, maslagim shudir.  
Vatan uzra g‘olib hilpirasin tug‘i,  
BAYROG‘IN*

**ASRAGAN**

**MILLAT –**

**MANGUDIR!**



### KO‘KSIDA «JASORAT»I BOR



5



**XATIRCHINING  
OSOYISHTALIGI YO‘LIDA**

11



**ИСАЖОН  
СУЛТОН:**

**«ТАРИХНИ ҲАҚҚОНИЙ  
ЖОНЛАНТИРИШ КЕРАК»**

17



## BAYRAM SHUKUHI

## FIDOYILAR TAQDIRLANDI



Ichki ishlar vazirligi «Jar» SSKda Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan tantanali bayram tadbiri tashkil etildi. Unda Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov, Bosh prokuratura, Milliy gvardiya, Adliya hamda Sog'liqni saqlash vazirligining mas'ul rahbarlari ishtirok etdi.



Ko'tarinki ruhda o'tgan tadbirda general-leytenant Po'lat Bobojonov tibbiyot xodimlarining o'z vazifalariga sidqidildan yondashib, ichki ishlar organlarida tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, xodimlarning salomatligini ishonchli muhofaza qilish, jamiyatda sog'lom turmush tarzini mustahkamlash borasidagi samarali mehnatini, zamonaviy davolash usullarini amaliyotga keng tatbiq etish ishlariga qo'shayotgan munosib



hissasini alohida e'tirof etdi. Shundan so'ng bir guruh soha vakillari «A'lo xizmatlari uchun» va «Benuqson xizmatlari uchun» ko'krak nishonlari, esdalik qo'l soati, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shuningdek, bo'lib o'tgan tadbirda boshqa huquq-tartibot organlari rahbariyati tomonidan fidoyi xodimlarga qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Bundan tashqari, soha faxriylari ham esdalik sovg'alari bilan siylandi.

IIV Madaniyat saroyida vazirlik tizimidagi davolash-profilaktika muassasalarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari o'rtasida «Yilning eng yaxshi tibbiy hamshirasi» ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.



Har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan ushbu tanlovda intellektual salohiyati, kasbiy malakasi hamda shaxsiy sifatleri bilan xizmati davomida boshqalarga namuna bo'lgan va hududiy bosqichlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan 18 nafar tibbiy hamshira qatnashdi. Ishtirokchilar tibbiy yo'nalishdagi amaliy bilimlarini Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazida sinovdan o'tkazishdi.



Ko'rik-tanlovning «tanishtiruv», «savol-javob» va «erkin mavzu» kabi shartlari bo'yicha bel-lashuvlari ayniqsa qiziqarli o'tdi.

Tanlovning yakuniy natijalariga ko'ra, barcha raqiblaridan yaqqol ajralib turgan Jizzax viloyati IIB Tibbiyot bo'limi hospitali hamshirasi **E. Yusupo-**

**va eng yuqori natijaga erishib, 1-o'ringa** loyiq topildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Tibbiyot bo'limi poliklinikasi tibbiy hamshirasi **M. Utekeyeva 2-o'runni** egallagan bo'lsa, Sirdaryo viloyati IIB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi laboranti **R. Ishambetova 3-o'ringa** munosib ko'rildi.

G'oliblarga tashkilotchilar tomonidan diplom, qimmatbaho sovg'alar hamda pul mukofotlari topshirildi.

**O'z muxbirimiz.**





Yoshlar – kelajak bunyodkori

# BOLA RUHIYATI JUDA NOZIK

**P**ayariq tumani IIBda voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologi, leytenant Sitara Arziyeva so'nggi paytlarda xulq-atvoridagi salbiy o'zgarishlar sabab voyaga yetmaganlar ro'yxatiga kiritilgan Nargiza (ismi o'zgartirildi) bilan profilaktik suhbat o'tkazar ekan, uning «Menga onamning mehri, e'tibori kerak» degan so'zlaridan yuragi uvushdi.

Haqiqatan ham, Nargiza o'ziga to'q oiladan. Otasi vafot etgan. Onasi katta tadbirkor. U qizining og'zidan chiqqan pul, buyum, kiyim-kechag-u taqinchoqlar, turfa taniq yeguliklarni ortig'i bilan muhayyo qiladi. Ammo bularning hech biri farzandi istagan bir chimdim mehr o'rnini bosolmayotganini bilmaydi. Nargiza xurmacha qiliqlari bilan go'yoki, o'zini-o'zi ovutib, tobora insoniylikdan yuz burmoqda. Masalaning o'ylantiradigan jihati ham ana shunda.

Inspektor-psixolog Sitara Arziyevaning xizmat faoliyatida ko'pincha mana shunday chigal muammolar, o'zi bilmagan holda, hayotini izdan chiqarishgacha yetib borgan yoshlar bilan kechadi.

– Hech bir bola jinoyatchi yoki huquqbuzar bo'lib tug'ilmaydi, – deydi qahramonimiz. – Ammo yoshlik – g'o'rlik, deyishgani bor gap.

Aynan shu g'o'rlik ba'zi oilalardagi nosog'lom muhit, yaqinlarning e'tiborsizligi, atrofdagilarning turli ta'siri ko'pincha voyaga yetmaganlarning xulq-atvorida salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ya'ni, er-xotinning farzandlar oldida tez-tez nizolarga borishi, ularning tarbiyasiga ahamiyat qaratmaslik bilan bog'liq hayotiy misollar ko'p. Aslida bunday noxush holatlarning yechimi oddiy. Bu – ota-onaning o'z bolasi bilan do'stona munosabat o'rnatishi va u bilan har qanday vaziyatda tillasha olishi. Farzand nihol bo'lsa, ota-ona uni parvarishlaydigan bog'bondir. Shu o'rinda ota-onalardan bolalarini yoniga olib kitob o'qishini yoki biror mavzuda suhbat qurishini, kunda bir bora erkalab, «Men seni yaxshi ko'raman, sen menga keraksan», deya quchib qo'yishini so'ragan bo'lardim. Bola tabiati juda nozik bo'ladi. Biroq oilasidagi sog'lom muhitda yaqinlarining mehr taftini tuyib ulg'aygan bolaning qalbida yomonlikka o'rin qolmaydi.

Inson ruhiyatining eng nozik nuqtalarigacha tahlil etib, uni suhbatdoshiga sodda va ravon tushuntira oladigan Sitara Arziyeva Jizzax davlat pedagogika institutining «Pedagogika va psixologiya» yo'nalishini tamomlagan. Ichki ishlar organlarida xizmat boshlaganiga hali ko'p bo'lmagan. Biroq u kasbini nihoyatda yaxshi ko'radi. Va kasb mashaqqatlarini yo'nalishidan



kelib chiqib, psixologlarga xos tarzda bartaraf etadi.

Yosh bo'lsa-da, fikrlari dadil, hayotga qarashlari teran leytenant Sitara Arziyeva oila oshyonida Rustamjon va Davronbeklarga mehribon ona, turmush o'rtog'iga sevimli rafiq va pazanda beka. U pazandalik mahoratini hamkasblari ko'z o'ngida joriy yilda o'tkazilgan «To'maris izdoshlari» ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichida mazali non pishirish shartida g'olib bo'lib isbotlagan.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Profilaktika xizmati



## DOIM ODAMLAR ORASIDA ACHCHISOY MAHALLASI

**Qo'shni Qozog'iston bilan chegaradosh bo'lgan «Achchisoy» mahallasi Zangiota tumani markazidan taxminan 15–16 km uzoqlikda joylashgan. Bu yerda 5 ming nafarga yaqin aholi istiqomat qiladi. Ular asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi.**

Mahalla hududida 4 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 2 ta poliklinika, 1 ta umumta'lim maktabi, ko'plab maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari mavjud. Mahallada sodir etilgan har qanday qonunbuzarlik aholi ishtirokida muhokama qilinishi natijasida qisqa vaqt ichida «qizil» toifadan «yashil» hududga aylandi. Bunda, shubhasiz, profilaktika katta

inspektori, katta leytenant Sherzod Temirovning munosib hissasi bor.

O'tgan yillar mobaynida ustoz, mayor Ikromxo'ja Asomovdan sohaga oid bilim va malakani puxta o'zlashtirib, xizmat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llab kelayotgan Sherzod Temirov endilikda o'zi ham bir necha yosh xodimga murabbiylik qilmoqda.

Joriy yilning may oyida qurib bitkazilgan, barcha sharoit va qulayliklarga ega bo'lgan mahalla huquq-tartibot maskanida profilaktika inspektori bilan birga mahalla raisi, xotin-qizlar yetakchisi, hokim yordamchisi va yoshlar yetakchisi uchun ham shinam xonalar ajratilgan. Shuningdek, binoda turli nomdagi adabiyotlar jamlangan mo'jaz kutubxona barpo etilgan.

**Mixli SAFAROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlantirish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi.

**O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasining  
49-moddasi.**



★ Корреспонденты сообщают

## ЛУЧШИЕ СРЕДИ НАС



### ■ Джизакская область

**Гласность и открытость государственных организаций является одним из обязательных условий демократизации нашего общества. Укреплению связей с общественностью уделяется большое внимание, что способствует обеспечению интересов граждан.**

В октябре по инициативе Министерства внутренних дел было проведено изучение общественного мнения по вопросу определения лучших подразделений и сотрудников, наладивших подобное сотрудничество. По итогам голосования в их числе

начальник Фаришского РОВД Кахрамон Назаров, занявший третье место.

На собрании, состоявшемся в областном УВД, согласно приказу министра внутренних дел Кахрамону Назарову были вручены погоны подполковника и диплом.

### ■ Сурхандарьинская область



**В Сурхандарьинской области с участием сотрудников органов внутренних дел состоялись интеллектуальная игра «Заковат» и спортивные соревнования «Военная эстафета».**

За победу в турнирах боролись команды аппарата областного УВД, городских и районных ОВД. В интеллектуальной игре «Заковат» первого места удостоилась команда сотрудниц ОВД Сариасийского района. В соревнованиях «Военная эстафета» победителями стали представители ОВД Кизирикского района.

★ Обсуждение преступления

## ПОРИЦАНИЕ МАХАЛЛИ – ДЕЙСТВЕННЫЙ МЕТОД



### ■ Бухарская область

**Одним из действенных методов профилактики правонарушений является открытое обсуждение совершенных гражданами противозаконных действий в присутствии соседей – жителей махалли. Разбор поступков также служит общественным порицанием виновника.**

Одно из таких обсуждений состоялось в махалле Истиклол Бухарского района. В нем участвовали начальник областного Управления внутренних дел полковник М. Миралимов, прокурор области М. Истамов и руководители секторов, организаций и предприятий района, жители махалли.

Был проведен анализ преступления: мотивы, факторы и условия, при которых оно совершено. Подчеркнуто, что из факта кражи, выявленной в махалле, понесенного виновным наказания, нужно сделать выводы о недопустимости проявления беспечности и безответственности.





## YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

**Ichki ishlar organlari xodimlarining bu yilgi kasb bayrami Farg'ona viloyati IIB Ikkinchi mintaqaviy hudud saf bo'linmasi patrul-post xizmati otryadi birinchi guruh xodimi, safdor Ulug'bek Asqarov uchun xursandchiliklarga boy bo'ldi. Bayram arafasida u Prezidentimiz farmoniga binoan, «Jasorat» medali bilan taqdirlandi.**

2006-yildan buyon ichki ishlar organlari safida xizmat qilib kelayotgan Ulug'bek Asqarov jamoatchilik bilan ishlashda katta tajribaga ega.

– Hamisha xalq bilan birga, jamoatchilik orasida bo'laman, – deydi u. – Yurt tinchligi yo'lida qilayotgan xizmatim yuqori baholanganidan quvonchim ichimga sig'mayapti. Bildirilgan yuksak ishonchni oqlash uchun yanada

nigohlari har qanday jinoyat va huquqbuzarlikni, niyati buzuvchi kimsalarni tezda payqaydi. Shu bois ko'plab jinoyatlarning fosh etilishida

## KO'KSIDA «JASORAT»I BOR

qahramonimizning mu-nosib hissasi bor.

kuch va g'ayrat bilan xizmat qilaman. Ulug'bek Asqarovni Qo'qon shahrining eng gavjum hududlarida uchratasiz. Uning sinchkov

Yaqinda Qo'qon sadosi ko'chasida xizmat olib borayotganida, shubhali bir fuqaroni uchratib qoldi. Uni to'xtatib, shaxsiga oy-dinlik kiritdi. Uchko'prik tumanida

yashovchi ushbu shaxs suhbat davomida yanada bezovtalanib qoldi. Bu bejiz emas ekan. Xolislar ishtirokida tintuv qilinganida, uning telefon g'ilofi ichiga giyohvandlik moddasini yashirib yurgani fosh bo'ldi.

Lavhamiz qahramoni Dang'ara tumanidagi Beshkapa qishlog'ida istiqomat qiladi. Turmush o'rtog'i Ruqiyaxon Asqarova bilan ham-jihatlikda ikki nafar farzandni namunali inson qilib kamolga yetkazishmoqda. O'g'illari Umidjon va Uchqunbek hozirdanoq ota kasbiga havasmand.

– Padari buzrukorim, Umarali ota Asqarov bu yil 81 yoshni qarshiladi, – deydi mukofot sohibi. – Prezidentimiz tomonidan taqdirlanganimni eshitib, uning ko'zlariga yosh keldi. Medalni olib kelgan kunim ko'ksimga taqib, otamning oldiga kirganimda, sevinchi ikki hissaga ortdi. U meni uzoq duo qilib, bu mukofot ona Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilishning mevasi ekanligini ta'kid-ladi. «Bunday mukofot hammaga ham berilavermaydi. Endi ushbu medalni halol mehnating, kasbga sadoqat bilan oqlashing kerak, bolam», dedi u.

Safdor Ulug'bek Asqarov bu-gun ham xalq xizmatida. Ko'ksiga taqilgan «Jasorat» medali uni yanada g'ayrat-shijoat bilan xizmat qilishga undamoqda.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



## «SAYYOD»NING SODIQ INSPEKTORI

**Prezidentimizning Mustaqillik bayrami arafasidagi farmoniga binoan, «Shuhrat» medaliga sazovor bo'lganlar orasida Qorako'l tumani IIB JXX Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Mansurjon Jalolov ham bor.**

U ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 2004-yilda IIV Transport IIB Temiryo'llarida amiyakli selitra tashishni kuzatish bo'yicha alohida militsiya batalyoni «Tinchlik» temiryo'l bekati xizmat ko'rsatish bo'yicha 2-otryad guruh komandiri lavozimida boshlagan. Bu lavozimda besh yil namunali xizmat ko'rsatgach, o'zi tug'ilib o'sgan Qorako'l tumani IIBda xizmatini davom ettirdi.

Lavhamiz qahramoni avval «Poykent» mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi tayanch punkti profilaktika inspektori etib tayinlandi. Qisqa vaqt ichida hududdagi tezkor vaziyatning barqarorligini mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Natijada aholining profilaktika inspektoriga bo'lgan ishonchi ortdi. 2015-yili Mansurjon xizmat faoliyatini tumanning kriminogen holati og'ir bo'lgan «Sayyod» mahallasida davom ettirdi.



Jinoyatchilik va huquqbuzarliklar tez-tez sodir etilayotgan, spirtli ichimlik ichib, janjal qiladigan shaxslar ko'p uchraydigan bu hudud profilaktika inspektoridan nihoyatda jiddiy ish olib borishni talab etardi. M. Jalolov faoliyatini spirtli ichimlikka ruju qo'ygan shaxslarni majburiy davolash muassasalariga yotqizishdan boshladi. Muqaddam sudlangan, jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan tez-tez

suhbatlashib, profilaktik tadbirlar olib bordi. Sodir etilgan jinoyatlarni tezkorlik bilan fosh etishga harakat qildi. Bunday sa'y-harakatlar o'z samarasini berdi: jinoyatchilik yildan-yilga kamaydi.

2022-yili yana «Sayyod» mahalla fuqarolar yig'inida faoliyatini davom ettirgan M. Jalolov bugungi kunda tumanda eng faol, ishchan va jinoyat ildiziga bolta urayotgan xodimlar safida turadi. Shuningdek, u qo'l ostidagi profilaktika inspektorlarining ishlarini nazorat qilib, ularga amaliy ko'mak beryapti. Katta leytenantlar Jonibek O'rinov va Bobir Yo'ldoshevlar ustozlari bilan faxrlanishadi.

Lavhamiz qahramoni nafaqat xizmatda o'rnak, balki oilada ham ibratli ota. Umr yo'ldoshi Shahnoza Jo'rayeva bilan birga Donaxon va Sardorbeklarni el-koriga yaraydigan inson qilib tarbiyalashmoqda. Qizlari onasining kasbini tanladi. U Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida tahsil olmoqda. O'g'illari Sardorbek esa ota izidan boryapti. U ayni paytda IIV Buxoro akademik litseyida o'qiyapti. Qisqasi, o'z ishi-niing fidoyisi bo'lgan lavhamiz qahramonining zahmatli xizmati hali ko'p bor tilga olinishiga aminimiz.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



★ Месячник безопасности на железной дороге

## ПРАВОПОРЯДОК НА МАГИСТРАЛЯХ

**В Хорезмской области в рамках месячника проводится работа, направленная на предупреждение несчастных случаев и профилактику правонарушений, пропаганду правил безопасности.**

В мероприятиях участвуют сотрудники Управления обеспечения безопасности на железнодорожном транспорте, транспортной прокуратуры, территориальных органов внутренних дел, отдела военизированной охраны, регионального узла акционерного общества «Ўзбекистон темир йўллари», представители органов самоуправления граждан.

– Изучено состояние 67 железнодорожных объектов, 28 переездов, посетили 184 домовладения, расположенных на прилегающей к путям территории, – говорит заместитель начальника Управления обеспечения безопасности на транспорте подполковник

Бахром Каримов. – По выявленным фактам оформлены предписания, а также административные протоколы в отношении 26 лиц, не соблюдавших установленные правила.

Совместно с заинтересованными организациями и учреждениями предпринимаются меры по устранению недостатков и упущений, дооборудованию железнодорожных переездов, установке дополнительных знаков.

Месячник безопасности на железной дороге продлится до 1 декабря.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
соб. корр.

*Хорезмская область.*



■ Республика Каракалпакстан

## ОТВЕСТИ ОТ НЕВЕРНОГО ШАГА

**За кражу юноше из Канлыккульского района суд назначил соответствующее наказание. Согласно приговору, надзор за ним был возложен на группу пробации РОВД. Дело поручили старшему инспектору группы майору Уласбеку Сейтбекову.**

Инспектору удалось вывести осужденного на откровенную беседу, в ходе которой он признался, что совершил кражу из-за тяжелого материального положения семьи. С тех пор, как глава семейства скончался, мать юноши часто болела, пока не стала инвалидом. Между тем старший брат не собирался работать. Инспектор побывал в доме К. Д. и поговорил с соседями. Выяснилось, что семья действительно бедствовала.

Для начала инспектор закупил набор продуктов, передавая который пообещал помочь с ситуацией, но поставил условие, что К. Д. твердо станет на путь исправления. При содействии помощника хокима района майор выхлопотал сварочный аппарат для юноши. Тот, в свою очередь, тоже сдержал слово, начав зарабатывать на жизнь честным путем. Вскоре он был



**На снимке:** майор У. Сейтбеков и инспектор ДПС младший сержант С. Алланазаров проводят разъяснительную работу с лицами, состоящими на учете группы пробации.

досрочно освобожден от наказания.

Это один из примеров из практики группы пробации СОБ РОВД. В настоящее время на учете состоит 51 житель района, в том числе

48 мужчин и трое женщин. Благодаря разъяснительной и профилактической работе за минувший период с учета сняты 58 граждан, из них 23 человека освобождены условно-досрочно.

– Есть такое неписаное право – право на ошибку. Карая человека за проступок, особенно молодого, нужно помнить, что наказание может спровоцировать худшее. Поэтому ста-

раемся всеми силами в рамках закона содействовать исправлению личности. Тесно сотрудничаем с отделом труда и занятости, – говорит майор У. Сейтбеков.

Окончив в 2013 году юридический факультет Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, У. Сейтбеков год проработал юрисконсультom сельскохозяйственного колледжа Канлыккульского района. Затем был принят в органы внутренних дел. Начинал инспектором профилактики в Кунградском РОВД. В 2017 году продолжил службу старшим инспектором инспекции исполнения наказаний, не связанных с лишением свободы, ОПП Канлыккульского РОВД.

Наряду с выполнением служебных обязанностей принимает активное участие в духовно-просветительских мероприятиях. Вместе с супругой, К. Алламжаровой, воспитывает троих детей.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**  
соб. корр.





HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

## MAQSADI MANFAATIDAN USTUN

Taassufki, odamlar orasida «Har qanday muammoni pul bilan hal qilsa bo'ladi» degan o'ylov hamon yo'qolgani yo'q. Qaytanga, kun sayin «bolalab» bormoqda. Ko'pchilik «o'qishga qo'yaman, ishga joylashtiraman» degan nomaqbul xatti-harakatlari oqibatida javobgar bo'lishini to'la anglab yetmayapti. Yana bir qismi xuddi shu usullar orqali firibgarlar uchun o'lja bo'lishib, chuv tushishmoqda.

Valibek (ismlar o'zgartirildi) tanishi R.J.ni ichki ishlar organiga ishga joylashtirmoqchi bo'ldi. Shu bois unga «Xarajatidan qochmasang, aralashaman. Bo'lmasa, boshimni og'ritib nima qilaman?» dedi. R.J. yigitning so'zi bitta qabilida «Sizni ham rozi qilaman» deb qistirib o'tdi. Shundan so'ng Valibek undan-bundan so'rab-surishtirib, o'rta tushadigan odamni izlay boshladi.

**IIV Buxoro akademik litseyining direktor o'rinbosari, mayor Ilhom Samandarovga uchrashgan Valibek avvaliga viloyat IIBda bo'sh o'rinlarga nomzodlar qabul qilinayotgan ekan, deya o'smoqchiladi. Keyin dangal maqsadga ko'chdi: «Tanishim ishga kirmoqchi edi. Shunga yordamlashsangiz» dedi va xamir uchidan patir sifatida 200 AQSH dollarini stolning ustiga qo'ydi. I. Samandarov davlat xizmatchisiga pora berish jinoyat ekanligini tushuntirgach, Valibek pulini cho'ntagiga solib, mayorga o'ylab ko'rishini qattiq tayinladi. Mayor esa «Ovora bo'lib qaytib kelmang», dedi.**

Ertasiga Valibekning tirjaygan basharasi yana ko'rindi. U tanishi tanlovning sport jarayonidan o'tganligini, ammo psixologik testdan o'ta olmasligini aytib, shu masalada yordam berishini so'radi. Mayor unga bu masalalar tanlov komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishini yana bir karra eslatdi. Lekin ikki oyog'ini bir etikka tiqib olgan Valibek gapga sira tushunmas, to'tiqushday bir so'zni takrorlardi. Mayor uni bu



yo'ldan qaytara olmasligini anglagach, «Pulingizni olib keting, yuqori turuvchi rahbarlar bilan maslahatlashay, keyin javobini aytaman», dedi.

Huquq-tartibot organlari hamkorligida o'tkazilgan tadbir davomida Valibek litsey direktori o'rinbosarining xizmat xonasida unga 500 AQSH dollarini bergan vaqtida qo'lga olindi. Holat yuzasidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgach, Valibekka nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi...

**Ilhom Samandarov IIV Akademiyasini tugatgach, ilk xizmat faoliyatini Buxoro shahar IIB HPB IIO TP profilaktika inspektori lavozimida boshladi. Oliy o'quv yurtida olgan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishda ustozlarining maslahat va o'gitlariga tayanib ish olib bordi. Tirishqoqligi, o'qib-o'rganishdan erinmasligi, har ishga adolat bilan yondashishi, halolligi bilan e'tibor qozondi, rahbariyat nazariga tushdi.**

Xizmat faoliyatining keyingi yillarini viloyat IIBning turli lavozimlarida davom ettirgan qahramonimiz ayni paytda egallab turgan lavozimida 2021-yildan beri faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Qisqasi, halollikni shior qilgan I. Samandarov singari o'z burchi va kasbiga sodiq osoyishtalik posbonlari bor ekan, fuqarolar ishonchi ortib boraveradi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

FIDOYI HAMKASBLARIMIZ

## ZO'RAVON QO'LGA OLINDI



qo'ni-qo'shnilarning erkakka bas kelolmaganligi yaqqol sezilib turardi. Xodimlar darhol uni qo'lga olishdi. Mazkur jarayonda qonun himoyachilariga qarshilik ko'rsatishga urinayotgan zo'ravonning kamariga qistirilgan oshxona pichog'ini olib qo'ydilar.

Ma'lum bo'lishicha, Jizzax shahrining «Madaniyat» mahallasida yashovchi O.T. shar'iy nikohdagi turmush o'rtog'i S.A.ni xiyonatda ayblab, u ijara

**Ichki ishlar organlarining «102» qisqa raqamiga Jizzax shahrining «Ittifoq» mahallasi-dagi ko'p qavatli uyda yashovchi fuqaro qo'ng'iroq qilib, qo'shni xonadonda ijara istiqomat qiladigan ayolni bir erkak do'pposlayotgani haqida xabar berdi. Mazkur chaqiruv asosida aytilgan manzilga viloyat IIB JXX JTSB patrul-post xizmati batalyoni xodimlari, katta serjant Usmon Mustafuqulov hamda safdor Shahridin Qo'ldoshev zudlik bilan yetib bordilar.**

Bu paytda gumonlanuvchi yuzlari qonagan ayolning sochidan tortib, zinadan pastga sudrayotgandi. Hodisani kuzatib turgan



yashaydigan xonadonga borgan va unga tan jarohatlari yetkazgan.

Dastlabki surishtiruv davomida ayblanuvchi ayolning joniga qasd qilish niyati bo'lganligini yashirib o'tirmadi. Qisqasi, xodimlar mudhish jinoyatning oldini olishga muvaffaq bo'ldilar.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o'z muxbirimiz.  
Jizzax viloyati.

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 55-MODDASI.

Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'zni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.



Joriy yil 14-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi IIV 2-sonli Toshkent akademik litseyi va Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyi bilan memorandum imzolandi.

Ikki litsey direktorlari o'rtasida o'tkazilgan uchrashuv davomida o'quv, o'quv-uslubiy, o'qitishning zamonaviy innovatsion shakl va usullari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o'quv jarayoni samarali tashkil etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha o'zaro tajriba almashish kabi litseylar faoliyatiga doir hamkorlik qilish kelishib olindi.



## SULOLA

## AN'ANALAR ETADI DAVOM

Har qanday kasbda sulolalar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, ichki ishlar organlari xodimlari orasida sulolalar ko'p uchraydi. Zero, bolalikdan osoyishtalik posbonining ish muhitini o'z hayotida his etganlar ko'pincha bo'lajak kasb tanlovida ikkilanmay, ongli ravishda ota-onasining ishini davom ettirishadi.

Urushdan keyingi og'ir davrda ichki ishlar organlariga xizmatga kirgan Azimjon Maniyozov Shahrixon tumani IIB Jinoyat qidiruv bo'linmasi tezkor xodimi sifatida faoliyat olib borgan. U xizmatdan uzilmagan holda, IIV Olmaota o'rta maxsus maktabini, keyinchalik Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetini tamomladi. Shahrixon tumani IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari, Bo'z (hozirgi Bo'ston) tumani IIB boshlig'i lavozimlarida xizmat qilgach, 1980-yilda podpolkovnik unvonida pensiyaga chiqdi.

Rafiqasi Muhabbatxon bilan birgalikda besh o'g'il va ikki qizni tarbiyalab, voyaga yetkazishdi. To'ng'ich o'g'il Adhamjon ota izidan bordi. U ichki ishlar organlarida o'ttiz yildan ortiq xizmat qilib, podpolkovnik unvoni bilan pensiyaga chiqdi.

Ikkinchi o'g'li Ahmadjon ham ToshDUning yuridik fakultetini, keyinchalik IIV Akademiyasini tamomladi. Andijon shahar IIB Tergov bo'limida, shuningdek, Xo'jaobod, Mar-

hamat, Ulug'nor, Qo'rg'on-tepa tumanlari IIB boshlig'i, Andijon viloyati IIB boshlig'i o'rinbosari lavozimlarida xizmat qildi. 2006-yilda polkovnik unvoni bilan pensiyaga chiqdi.

Kichik o'g'il Ulug'bek ham akalari singari, Andijon va Namangan IIBlarida turli mas'ul lavozimlarda xizmat qilib, podpolkovnik unvoni bilan pensiyaga kuzatilgan.

Azimjon otaning nabiralari sulolani davom ettirib kelishmoqda. Azizbek hozirda Andijon viloyati IIB Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bo'limi boshlig'i, Umidjon IIV Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi katta tezkor xodimi, Otabek prokuratura xodimi, Odiljon esa IIV Shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasining Andijon viloyati bo'yicha mas'ul xodimi va eng kenja nabira Azimjon patrul-post xizmati batalyoni safdor xodimidir.

Maniyozovlar sulolasida bir polkovnik, besh podpolkovnik, ikki mayor va bir safdor xodim bor.



Shu o'rinda ichki ishlar organlarida 40 yildan ziyod xizmat qilgan iste'fodagi polkovnik Ahmadjon Maniyozov haqida alohida to'xtalib o'tish joiz. U rafiqasi E'tiborxon hoji ona bilan birga besh o'g'ilni voyaga yetkazdi. Kuch-shijoatga to'la Ahmadjon aka shu kunlarda 70 yoshga to'ladi. Hamon o'z faoliyatini davom ettirayotgan Ahmadjon aka huquqshunoslikdan tashqari, IIV Andijon akademik litseyida ichki ishlar

organlari faoliyati fanidan dars beradi.

Iste'fodagi polkovnik A. Maniyozov ko'p yillik xizmati davomida polkovniklar Rahimjon Karimov va Inomjon Azimov, podpolkovniklar Ravshanbek Sultonov, Zafar Rahmonov, Abdurahmon Tojimatov kabi bir qator shogirdlarni tarbiyaladi.

U o'z ishiga sadoqati, hamisha yordamga shayligi bilan ham hamkasblari, ham fuqarolar orasida hurmat qozondi.

Ko'p yillik fidokorona mehnati uchun bir nechta mukofotlar bilan taqdirlandi.

Tavalludining 70 yilligi arafasida iste'fodagi polkovnik Ahmadjon Maniyozovga mustahkam sog'liq, oilaviy farovonlik va ulkan baxt tilab qolamiz.

**Boris KLEYMAN,**  
o'z muxbirimiz.

**Suratda:** Ahmadjon Maniyozov o'g'li Odiljon, jiyani Azizbek va nabirasi Azimjon bilan.

## AYOL VA JAMIYAT

## ONANING QO'SH QANOTI

**Mahmudjon aka va Sanobar opa juftligining mevasi – Marhamat va Feruza ham o'g'il, ham qiz o'rnida ota-onasining ko'zini quvnatib katta bo'lishdi. Opa-singilning orasida bir yosh farqi bor, shuning uchun bo'lsa kerak, xuddi egizlardek yurishardi.**



Mahmudjon Pirmatov bir necha yil ichki ishlar organlarida faoliyat yuritgan, ammo sog'lig'i tufayli

xizmatni davom ettira olmagan. Yuragida armon gullagan ota qizlarining ichki ishlar organlarida

xizmat qilishini ich-ichidan xohlardi. Shu bois dilbandlariga o'g'il bolalarga xos jasurlik va mardlik xislatlarini singdirishga harakat qilgan. Qizlar ulg'ayib, ota orzusini ro'yobga chiqardi. Ikkovi ham osoyishtalik posboni bo'lishdi.

Darvoqe, Sanobar opa ham sohaga begona emas. U kishi qariyb 37 yil Toshkent shahar IIBB Poliklinikasida ichki ishlar organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar vakillarining salomatligini tiklash yo'lida feldsher-laborant sifatida faoliyat yuritgan. Farzandlarining ichki ishlar organlari xodimi bo'lishida onaning ham alohida o'rni bor. Aya hozir pensiyada, farzandlari va nabiralari qurshovida keksalik gashtini suryapti.

Katta qizi Marhamat Pirmatova ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 2001-yilda boshlagan. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida sirtidan tahsil olgan. Ayni paytda Yunusobod tumani IIOFMB 3-sonli IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha

katta inspektor lavozimida xizmat qilmoqda, unvoni kapitan. Faoliyati davomida ko'plab fuqarolar bilan suhbatlashadi. Er-xotin, qaynona-kelin, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi ziddiyatli vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini o'rgangan holda, muammoni bartaraf etishga harakat qiladi. Ular orasida mehroqibatni tiklashda mahalla faollari hamda keksalar hamkorligida ish olib boradi.

Feruza Mansurova IIV Akademiyasida tahsil olgan. Ichki ishlar organlaridagi faoliyatini 2002-yilda Toshkent shahar IIBB Axborot markazi elektron hisoblash mashinasi operatorligidan boshlagan qahramonimiz hozirgi kunda Shayxontohur tumani IIOFMB tezkor-qidiruv xizmatida faoliyatini davom ettirib kelmoqda, unvoni podpolkovnik. Turmush o'rtog'i Ramiz Mansurov bilan farzandlari – Marhaboxon va Rahmonalini voyaga yetkazishmoqda.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.





BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

## EGRI YO'LNING TO'QMOG'I BOR

Qumqo'rg'on tumanida yashovchi aka-uka Inog'omovlar (ism-shariflar o'zgartirildi) jamiyatda yurish-turish qoidalarini buzgani holda, bezorilik jinoyatini sodir qilishgandi. Ular mahalladoshi X. Rasulovni arzimagan sabab tufayli rosa do'pposlashdi. Natijada jabrlanuvchi ularning ustidan huquq-tartibot organlariga shikoyat qildi. Shundan so'ng aka-ukalar sud hukmiga ko'ra, 3 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilindi.

Tabiiyki, endi ular tuman IIB probatsiya guruhi nazorati ostiga olindi. Tungi vaqtda yashash joyidan chiqish taqiqlandi. Biroq bu cheklovlar aka-ukalardan biri Mavlon Inog'omovga yoqmadi. «Pul bo'lsa, hamma narsaning yo'lini topsa bo'ladi» qabilida yashovchi M. Inog'omov Toshkent shahriga ketish uchun yo'l izlashga tushdi. Axiyri, bir bahona topib, probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan A. Qosimovning oldiga bordi.

Mavlon xodimning xonasiga kirmasdan, biroq kalovlanib turdi-da, maqsadga ko'chdi. Otasi betob ekanini, uni davolatish uchun pul ishlab topish maqsadida Toshkent shahriga borish rejasini aytdi. Buning uchun kapitandan uyiga izlab bormasligini, poytaxtga ketganini hech kimga aytmasligini so'radi va unga shu yaxshiligi uchun pora taklif qildi. Xodim M. Inog'omovning gaplarini diqqat bilan eshitgach, unga bu harakati qonunga zid ekanini va buning uchun u yana javobgarlikka tortilishi mumkinligini bosqlik bilan tushuntirdi.



«Qonunga zidligini men ham bilaman, shuning uchun sizdan ugina, bizdan bugina deganlaridek, yordam so'rab keldim», deya o'z harakatini xaspo'shlashga urindi M. Inog'omov. Ammo kapitan A. Qosimov bunday qilolmasligini qat'iy bildirdi.

Mavlon «ko'nmaydigan odam bor ekanmi, baribir ko'ndiraman» deya katta inspektorning oldiga bir necha marta borib, yana o'sha taklifini bildirishda davom etdi. O'tkazilgan tezkor tadbirda M. Inog'omov 2 million so'm miqdoridagi pulni xodimga uning xizmat xonasida berayotgan vaqtda qo'lga olindi.

Holat yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atildi. Bir xatoni tuzatmasdan, ikkinchisiga qo'l urgan M. Inog'omov endi qonun oldida yana javob berishga to'g'ri keladi. Egri yo'lning to'g'mog'i bor deb, shunga aytishadi.

**Feruza RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Surxondaryo viloyati.

**Abdimannob ALLAYOROV,**  
podpolkovnik.  
Qashqadaryo viloyati.



## YANGI MASKAN XODIMLAR IXTIYORIDA

Kitob tumanidagi «Paxtaobod» mahallasida yangi huquq-tartibot maskani qurib, foydalanishga topshirildi. Huquq-tartibot maskani ochilishida viloyat va tuman sektor rahbarlari, nuroniylar hamda keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Mahalla huquq-tartibot maskani «Xalqlar do'stligi», «Istiqbol», «Sohibkor», «Paxtaobod» va «Bog'bon» mahallalariga xizmat ko'rsatadi. Yangi maskan yig'ilish zali, profilaktika inspektori, xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor hamda voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog, milliy gvardiya, jamoatchilik vakillariga mo'ljallangan xonalarni o'z ichiga olgan.



«YASHIL MAKON» UMUMMILLIY DASTURI – AMALDA

## BU BOG'LAR BIR BOG'LAR BO'LADI HALI...



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilayotgan «Yashil makon» umummilliy dasturini amalga oshirishda ichki ishlar organlari xodimlari faollik ko'rsatmoqda. Jumladan, soha vakillari Zafarobod tumanining «Samarqand» mahallasidagi 2 gektar joyni boqqa aylantirish maqsadida 2000 tup mevali va manzarali daraxt nihollarini ekdilar. G'allaorol tumanining «Baxt» mahallasida 1,5 gektarga 400 ta manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi. Shuningdek, Sharof Rashidov tumanining «Oqtosh ota» mahallasidagi adirlikka 600 tup mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekildi.

Zomin tumanida esa ichki ishlar organlari binolari tevaragida jami 1,5 gektar yer ko'kalamzorlashtirildi. Qolaversa, har bir profilaktika inspektori 10 tupdan daraxt nihollari o'tqazdi. IIV Jizzax akademik litseyi jamoasi ham mazkur ezgu tashabbusni qo'llab-quvvatlab, qariyb 1 gektar yerga 400 tup bodom, gilos, behi, olma, yong'oq, qayrag'och, pavloniya, archa kabi daraxt ko'chatlarini ekdilar. Quvonarlisi, viloyatning barcha shahar tumanlarida uyushqoqlik bilan amalga oshirilayotgan ko'kalamzorlashtirishda iqlim va yer sharoitiga mos daraxt navlarini tanlashga alohida e'tibor qaratilayotir.

Jizzax viloyati.

O'z muxbirimiz.





MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

# IX–XII ASRLARDA SHARQ UYG'ONISH DAVRI

**Milodiy 809–813-yillarda Xuroson, Movarounnahr va Xorazmda siyosiy faoliyatini amalga oshirgan al-Ma'mun buyuk bir ishga qo'l urdi. Ya'ni, uyg'onish davrini boshlab beruvchi «Baytul-hikma» («Donishmandlar uyi»), hozirgi tilda aytganda, Fanlar akademiyasi faoliyatiga asos soldi. Uning ilmiy faoliyatini boshqarishga xorazmlik qomusiy alloma Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy va buyuk olim Ahmad al-Farg'oniylar tayinlandi.**



Xorazmiy (783–850) qadimdan fan va madaniyat o'chog'i bo'lgan Xorazm vohasida dunyoga kelib, yoshligidan turli ilmlarga butun borlig'i bilan qiziqqan, ayniqsa, tabiiy fanlarni qunt bilan egallash uning asosiy mashg'ulotiga aylangan edi. Dastlabki saboqni zamonining eng mashhur ustozlaridan olib, so'ngra Marv shahridagi madrasada davom ettiradi.

Arab, fors, hind va yunon tillarini mukammal o'rganib, o'sha tillarda yozilgan ilmiy asarlarni qunt bilan mutolaa qilgan olim tabiiy fanlarning bundan keyingi rivojini ta'minlaydigan matematika, geometriya, trigonometriya, astronomiya, geografiya va tarix sohasida samarali ijod qildi. Natijada «Al-jabr val-muqobala», «Hisob al-hind», «Kitob at-tarix», «Kitob surat al-arz», «Kitob al-amal bil usturlabat» kabi yetuk asarlar dunyo yuzini ko'rdi.

Afsuski, buyuk ajdodimizning bizgacha faqat o'ntagina kitobi yetib kelgan, xolos. Urush-talashlar davrida bashariyatga, fan va madaniyatga xizmat qiladigan ko'plab noyob asarlar yo'qolib ketgan. Biroq o'sha o'nta kitobning o'zi ham tabiiy fanlar, shubhasiz, matematikaning buyuk kashfiyotchisi sifatida uni jahonga tanitdi. Matematikaga oid asarlari

iqtisodiy, me'morchilik, texnika, irrigatsiya va boshqa ko'plab sohalar ravnaqida dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Shu bois al-Xorazmiy nomi umumbashariy va umrboqiydir. Bunday farzandni kamolga yetkazgan uning ona Vatani O'zbekiston ham jahon miqyosida doimo tilga olinishga loyiqdir.

Ilk uyg'onish davrining buyuk allomalaridan yana biri Abul Abbas ibn Muhammad ibn Nosir al-Farg'oniylar ham fan, madaniyat ravnaqiga



jahoniy hissa qo'shgan buyuk olimlar sirasidan hisoblanadi. Uning butun ilmiy faoliyati Bag'dodda Ma'mun akademiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, matematika, geografiya, astronomiya, tarix va shu kabi boshqa ko'plab yo'nalishlarda katta izlanishlar olib bordi. Bag'dod va Damashqda astronomiya sohasida buyuk kashfiyotlar qilinishiga xizmat qilgan rasadxona qurilishiga rahbarlik qilish shu inson nomi bilan bog'liq. Ahmad Farg'oniyning astronomiyaga bag'ishlangan «Kitob fi usul ilm an-nujum», «Falakiyot risolasi», «Al-Majitiy», «Farg'oniylar jadvallari», «Usturlab bilan amal qilish haqida», «Oy, yerning ustida va ostida bo'lganida vaqtni aniqlash risolasi», «Yetti iqlim hisobi»,

«Usturlab yasash haqida kitob» asarlari mashhur bo'lib, jahonning eng yirik ilmiy-madaniy markazlarida saqlanadi. Asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan Ahmad Farg'oniyni yevropaliklar faxr bilan «Al-Fraganus» deb ataganlar.

Uyg'onish davrining yirik vakili, jahon fan va madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan



ulug' alloma Abu Nasr Muhammad al-Farobiy (873–951) O'tror yaqinidagi Vasij shaharchasida dunyoga kelib, Damashqda vafot etgan. U dastlabki ilmni Forobda olib, katta ilm maydoniga Buxoro va Samarqanddagi madrasalardagi faoliyati davomida kirib keldi. Bu ilm maskanlarida davrning mashhur ustozlaridan saboq oldi. Ko'plab tillarni mukammal egalladi. Fanlarning deyarli barcha sohalarini o'zlashtirgan Farobiy 160 dan ortiq asarlar yozdi. Riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, falsafa, tilshunoslik va adabiyot, siyosatshunoslik sohasiga doir kitoblari dunyoga mashhur bo'lib, jahondagi turli xalqlar tillariga tarjima qilindi. U yozgan Aristotelning «Metafizika asariga sharh», «Tirik mavjudot a'zolari haqida», «Musiqa kitobi», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Siyosat al-madaniyat», «Fozil odamlar shahri», «Masalalar mohiyati», «Tafakkur yurguzish mazmuni haqida kitob», «Falsafaning mohiyati haqida» va boshqa shu kabi ko'plab asarlari jahonda shuhrat qozondi.

Jahon ilm fani ravnaqida yana bir vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy o'ziga xos o'rin

egalladi. U 973-yili Xorazmda dunyoga keldi. Unda ilmga bo'lgan favqulodda qiziqish ona Vatanida shakllandi.

Taniqli olim Ibn Iroq Abu Rayhon Beruniyning katta ilm maydoniga ko'tarilishida ustozlik qiladi. Taqdir taqozosini qarangi, agar IX asr boshida ilk uyg'onish davri olimlarini homiylikka olgan Xalifa Ma'mun Bag'dodda «Donishmandlar uyi» akademiyasi boshqaruvini al-Xorazmiy va Ahmad Farg'oniylarga ishonib topshirgan bo'lsa, endi XI asr boshida Xorazm poytaxti Ko'hna Urganchdagi ilm-fan homiysi, xorazmshoh Ma'mun tashabbusi bilan uni boshqarish, nomi Movarounnahr va Xurosonga tanilayot-



gan Abu Rayhon Beruniyga ishonib topshiriladi. 1017-yilga qadar faoliyat yuritgan Xorazm Ma'mun akademiyasida mashhur olimlarning fandagi kashfiyotlari va ilmiy qimmatini dunyo turguncha o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan asarlar yaratiladi. Bunda Beruniyning ilm-fan sohasidagi fidoyiligi, shuningdek, atrofiga to'plangan olimlarga ibrat bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Beruniyning 200 ga yaqin asarlari orasida alohida mashhur bo'lgan «Hindiston» asari G'aznadagi ilmiy faoliyati hosilasi sifatida 1030-yilda yozib tugallangan. Mahmud G'aznaviy 1025-yildagi yurishlaridan birida Beruniyni ham o'zi bilan Hindistonga olib ketadi. Ana shu jarayonda ushbu nomda yaratiladigan asariga noyob manbalarni to'playdi. Natijada

jahonga mashhur «Hindiston» asari vujudga keladi.


Ilm-fanning eng yuksak cho'qqilarini zabt etgan buyuk alloma 1048-yili abadiyat dunyosiga doxil bo'ldi.

IX–XII asrlardagi uyg'onish davrining yana bir buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino 980-yili Buxoroning Afshona qishlog'ida tavallud topdi. U dunyoga kelgan Buxoro Sharqning madaniy markazlaridan biri edi. Ibn Sinoning ilk ustozlari otasi bo'lgan. Hind hisobi, falsafadan o'g'liga saboq bera boshlaydi. Ayni vaqtda u tabobat va mantiq ilmini favqulodda kuch va intilish bilan o'rganishga ahd qiladi.

Buxorodagi notinch vaziyatdan xabar topgan Abu Rayhon Beruniy Ibn Sinoni o'zi boshqarayotgan Ma'mun akademiyasiga taklif qildi. 1001-yilda Beruniy taklifini bajonidil qabul qilgan Ibn Sino Xorazmshohlar poytaxti Ko'hna Urganchga kelib, o'z davrining mashhur faylasuf olimi Abusahl Masihiy, tabib Abul Xayr Hammor, as-Saolibiy, matematik va astronom Ibn Iroq va boshqalar bilan yaqindan tanishib, butun borlig'i bilan ilmiy faoliyatga kirishadi. Beruniy va Xorazmshoh Ma'mun Ibn Sino uchun alohida qulay shart-sharoitlar yaratib beradi.

1017-yilda Xorazmni Mahmud G'aznaviy egallab olar ekan, bunday hukmdorga bo'ysunishni istamagan Ibn Sino ancha payt Eron hududining turli shaharlariga ko'chib, oxir-oqibat Hamadonda qo'nim topdi. Darbadarlik azoblarini boshidan kechirdi, fisq-u fasod, tuhmatlar oqibatida zindonga tashlandi. Ana shunday azoblar va tuhmatlarni boshidan kechirgan Ibn Sino 57 yoshida 1037-yil bu dunyoni tark etdi. Ammo shu yoshida ham jahoniy e'tirofga ega allomayni zamon G'arbda faxr bilan «Avitsenna», Sharqda esa «Shayxur rais» nomi bilan ulug'lanadi.

**Jumaboy RAHIMOV,**  
Jamoat xavfsizligi universiteti professori.





★ Tuman IIB faoliyatidan

# XATIRCHINING OSOYISHTALIGI YO‘LIDA

Yurtimizning har bir hududi o‘ziga xos tabiatiga, urf-odatlariga, qolaversa, dong‘i ketgan ne‘matlariga ega. Navoiy viloyati aholisi orasida «Xatirchi ayollari patirchi» degan gap yuradi. Haqiqatan ham bozordagi eng mazali shirin yog‘li patirlar xatirchiliklarning tandirida yopiladi. Tuman aholisining ko‘pchiligi dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanib, ro‘zg‘or tebratadi, daromad orttiradi. Shakardan shirin charos uzumlar, tilimi tilni yoradigan obinovot qovunlar ham shu yerda yetishtiriladi.



– Tuman miqyosida muntazam ravishda «Xavfsiz tun», «Ijtimoiy profilaktika kuni», «Hushyorlik», «Davomat», «O‘smir» kabi qator tadbirlar o‘tkazib turiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish orqali huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, – deydi tuman IIB boshlig‘i, podpolkovnik Obidjon Ro‘zimurodov.

Probatsiya nazoratidagi shaxslar bilan olib borilayotgan targ‘ibot-tashviqot ishlari natijasida 138 nafar mahkumning xulq-atvori ijobiy tomonga o‘zgardi. Shu munosabat bilan ularning jazosi yengiliga almashtirildi. Belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlagan 21 nafar mahkumga esa sud tomonidan ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlandi.

Tuman IIB M va FRB xodimlari tomonidan fuqarolarga ID-kartalari, xorijga chiqish pasportini rasmiylashtirish, ularni ro‘yxatga qo‘yish, ro‘yxatdan chiqarish bo‘yicha ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilda 15338 nafar fuqaroga ID-kartalari berildi. Yaqinda fuqaroligi bo‘lmagan 42 yoshli Ilimdor Lamayev O‘zbekiston fuqarosi maqomini oldi. 1972-yilda tug‘ilgan Mashrab G‘aniyev esa umrida birinchi bor o‘zining shu yurt fuqarosi ekanligini tasdiqlovchi hujjatga ega bo‘ldi.

**Mahliyo XOLOVA,**  
o‘z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Ana shunday ko‘rkam maskanning tinchligi va osoyishtaligini saqlashga mas‘ul tuman IIB xodimlarining xizmati ham e‘tirofga loyiq. Ayniqsa, aholining quvonch-u tashvishiga sherik bo‘lib yashayotgan profilaktika inspektorlarining faoliyati maqtashga arzigulik. Tumanda 200 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi, 70 ta mahalla mavjud. Har bir mahallada hududiy profilaktika inspektori faoliyat olib boradi. Ular aniqlagan muammolarini hal etish uchun «mahalla yettiligi» doirasida ish olib borishdan tashqari, tegishli tashkilotlar bilan ham hamkorlik qiladi. Mayor Faxriddin Yoqubov, kapitan Ozod Olimov hamda katta leytenant Nodirbek Pirmamatov kabi ushbu soha vakillarining fidoyiligi natijasida joriy yilning 10 oyi mobaynida 27 ta mahallada umuman jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Qolaversa, «qizil» toifadagi 14 mahalla «sariq» toifaga o‘tkazildi.





★ В дошкольных образовательных организациях МВД



## ВОСПИТАТЕЛЬНИЦА ЮНЫХ ДУШ

Такую краткую характеристику можно дать воспитательнице дошкольной образовательной организации «Булбулча» при УВД Сырдарьинской области Неле Темурбулатовой.

Быть воспитателем скорее призвание, чем профессия. Ибо дети не приемлют фальши, юные души тянутся к тем, от кого исходит особая аура доброты, искренности и любви.

Найдя в лице воспитателя настоящего наставника, малыши будут хранить в сердцах образ человека, раскрывшего им мир прекрасного. Получая взамен ту же теплоту от подопечных, воспитатель, в свою очередь, обретает заряд энергии, с избытком исходящей от детских душ.

Неля Темурбулатова – одна из таких специалистов, нашедших свое призвание. Почти три десятка лет вкладывает всю себя в работу в дошкольной образовательной организации «Булбулча»

при Управлении внутренних дел Сырдарьинской области. Ее повзрослевшие воспитанники трудятся в разных сферах, в разных регионах страны. Сейчас в ее группе находятся дети тех, кто сам когда-то учился под ее началом правильно держать ложку или карандаш.

Н. Темурбулатова уроженка города Гулистана. Окончив среднюю школу, поступила в местное педагогическое училище. В качестве одной из лучших выпускниц в 1993 году ее направили на работу в тот самый детский сад, где и поныне трудится, окруженная ватагой дошколят.

Раскрывать задатки своих подопечных – одно из значимых направлений работы. Неля Те-

мурбулатова большое внимание уделяет физическому развитию детей, проводит интересные спортивные игры, включая в них познавательные элементы по специальной методике.

Когда звучат аккорды в зале музыки, то все существующее, что есть в малышах, превращается в слух. Также занимательно проходят уроки изобразительного искусства. Даже в самом незамысловатом рисунке проступает мир фантазии ребенка. Именно так полагает воспитательница, видя в своих любимцах талант и способности.

**Абдурахмон  
МУСТАФОКУЛОВ,  
соб. корр.**

Сырдарьинская  
область.

★ Молодежь – наше будущее

## РЕЗУЛЬТАТИВНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Студенчество – достаточно большая социально-демографическая группа нашего общества. Дальнейшее повышение правосознания юношей и девушек, развитие их правовой культуры – важная задача.

В Ташкентском химико-технологическом институте ведется целенаправленная работа по реализации мер по профилактике правонарушений среди студентов. Осуществляется она под руководством старшего инспектора ОПП УКД ОВД Шайхантахурского района подполковника Азиза Жуманова.

– Работаем в тесном контакте с ректоратом, деканатами, активистами Союза молодежи, студенческого самоуправления, – говорит подполковник А. Жуманов. – Это крупный технологический вуз республики. Здесь функционируют 5 факультетов, контингент немалый – свыше 8 тысяч студентов дневного, заочного и вечернего отделений.

Подполковник А. Жуманов – опытный сотрудник. Выпускник Академии МВД Узбекистана 2009 года, служил в системе профилактики правонарушений в Самар-

кандской области, в следственном звене УКД ОВД Яшнабадского района, в подразделениях УКД ОВД Шайхантахурского района столицы. Нынешняя его должность связана с укреплением правопорядка на территории учебных корпусов института и в общежитии вуза, где проживают иногородние студенты.

В ежедневном графике службы подполковника А. Жуманова индивидуальная работа со студентами, участие в организации мероприятий правовой тематики, акций по пропаганде здорового образа жизни, тренингов. Социологические опросы и анкетирования также способствуют выявлению причин и условий совершения правонарушений.

**Олег КОН,  
кандидат педагогических  
наук.**

**Фото Эгамназара  
АБДУЛБОКИЕВА.**





## AHOLI ISHONCHI – ENG KATTA BAHO

**Qoraqalpog‘iston Respublikasining Taxiatoş shahri bir paytlar «Energetiklar shahri» deb atalib, hududdan tashqari, qo‘shni Turkmaniston va Xorazm viloyatini elektr energiyasi bilan ta‘minlab kelgan. Shahar hozir ham bu maqomini yo‘qotmagan.**



Taxiatosh tumani 2017-yil qayta tashkil etilgan tumanlardan biridir. Unga ko‘ra, Xo‘jayli tumanining «Keneges», «Sarayko‘l» va «Naymanko‘l» mahallalari Taxiatoş shahri hududiga birlashtirildi. Hozirda tumanda turli millat vakillaridan iborat 76 mingdan ortiq aholi istiqomat qilib kelmoqda.

– Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi

jinoyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan holatlar tuman hokimligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda o‘rganib chiqilib, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rilyapti.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishda zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Taxiatoş tumanida ham bu borada qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, tumdagi gavjum joylar, binolar, chorrahalar videokuza-tuv moslamalari o‘rnatilgan bo‘lib, ularning barchasi tuman IIB Navbatchilik qismiga integratsiya qilingan.



Bu joylardagi holatni real vaqt rejimida kuzatish va jinoyatlarni «issiq izida» fosh etishda qo‘l kelmoqda.

Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, tuman markazida yashovchi fuqaro P.Sabirov uyidan bahosi 500 ming so‘mlik velosipedi o‘g‘irlangani haqida Ichki ishlar bo‘limiga murojaat etgandi. Videokuza-tuv moslamasi orqali o‘g‘rining shaxsi aniqlanib, qo‘lga olindi.

Ma‘lumki, osoyishtalikni ta‘minlashda hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan profilaktika inspektorlarining

xizmati muhim hisoblanadi. Ayni kunda tuman hududida

**15 nafar** profilaktika inspektori o‘zlariga birlashtirilgan hududlarda xizmat qilyapti. Yil boshidan buyon ular tomonidan **1460 ta** ma‘muriy huquqbuzarlik aniqlanib, **146 mln**

**so‘m**dan ortiq jarima undirilgan. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar o‘ynash bo‘yicha 3 ta holat aniqlanib, aybdorlarga nisbatan tegishli choralar ko‘rilgan bo‘lsa, joylarda o‘tkazilgan profilaktik tushuntirish ishlari natijasida



turmush darajasining yuksalishida hududda tartibot ishlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilgani muhim ahamiyat kasb etadi, – deydi tuman IIB boshlig‘i, podpolkovnik Isak Saliyev. – Joriy yilning o‘tgan davrida tumanda umumiy jinoyatchilik o‘tgan yilga nisbatan sezilarli darajada kamayishiga erishildi. Mavjud 14 ta mahalla va ovul fuqarolar yig‘inidan 9 tasida umuman jinoyat sodir etilmadi.

Jinoyatchilikning oldini olishda joylarda muhokama yig‘ilishlarining o‘tkazilayotgani ijobiy natija bermoqda. Eng ko‘p uchraydigan



**14 nafar** fuqaro uyidagi ov qurollarini o‘z ixtiyori bilan topshirgan.

Profilaktika inspektorlari, aholi muammolarini hal etishda ham faollik ko‘rsatmoqda. Bugungi kunga qadar ular tomonidan

**736 ta** xulosa berilib, ulardan bir qanchasi ijobiy yechim topishi tufayli aholining ichki ishlar organlariga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanmoqda. Zero, aholi ishonchi eng katta bahodir.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o‘z muxbirimiz.  
Qoraqalpog‘iston Respublikasi.



## SOHAVIY XIZMATLARDA

«BOG'BON»NING  
QILMISHI

**H**azorasplik K.Sotim (ism-sharifi o'zgartirildi) tomorqasiga kannabis o'simligi urug'larini ekdi. Oradan biroz vaqt o'tgach, nihol bo'y ko'rsatdi. Sotim qilmishi jinoyat ekanini bilsa-da, niholni alohida mehr bilan parvarishlay boshladi. O'simlik kattargan sayin xavotiri ham osha bordi. Shu sabab «bog'bon» darhol o'simlik atrofini shox-shabalar bilan o'rab chiqdi. Lekin uning bu harakatlari besamar ketdi.

Mahalla hududida o'tkazilgan tezkor tadbirda tarkibida giyohvandlik moddasi mavjud bo'lgan 3 tup kannabis o'simligini parvarishlayotgan Sotimning qilmishi oshkor bo'ldi. Aniqrog'i, jinoyatni fosh etishda viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish bo'linmasi 2-guruh komandiri, katta serjant Dilmurod Yoqubov hamda uning jangovar sherigi «Surena»ning hushyorligi qo'l keldi.

Bo'linmada faoliyat ko'rsatayotgan tajribali kinolog, katta serjant Dilmurod Yoqubovning aynan kinologiya xizmatida ish-

layotganiga olti yildan oshdi. U o'tgan davr mobaynida viloyat hududida sodir etilgan 60 dan ziyod jinoyatni ochishda faol ishtirok etdi. Shuningdek, kinologlar o'rtasida o'tkazilayotgan respublika ko'rik tanlovlarida ham qatnashib, sovrindorlar safidan munosib joy olib kelmoqda.

– Kinologlarimiz boshqa sohaviy xizmat xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarda ham faol ishtirok etib kelishyapti, – deydi viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish bo'linmasi boshlig'i,

podpolkovnik Rasul Polvonov. – Shuningdek, ular yoshlarning kinologiya sohasiga bo'lgan qiziqishini shakllantirish maqsadida «Vatanparvar» tashkilotlarida, litsey va maktablarda o'quv mashg'ulotlari o'tkazishmoqda. Mazkur tadbirlarda kinologiya xizmatining maqsad va vazifalari tushuntirilib, xizmat itlari ishtirokida turli ko'rgazmali chiqishlar namoyish qilinmoqda.

**Xudoybergan JABBOROV,**  
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

**Suratda:** katta serjant Dilmurod Yoqubov xizmat paytida.



## BILIB QO'YGAN YAXSHI

Ov qilish va baliq ovlash yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini tutish qoidalarini buzish, kamyob va yo'qolib borayotgan hayvon turlarini tutishning belgilangan tartibini yoki shartlarini, shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi hayvonot dunyosidan foydalanish tartibini buzish javobgarlikka sabab bo'ladi. Ya'ni:

- juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda;
- «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvonot dunyosi turlarini nobud qilgan holda sodir etilgan bo'lsa;
- BHMning 400 baravaridan 600 baravarigacha (132 mln so'mdan 198 mln so'mgacha) miqdorda jarima;
- 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash;
- 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

\* \* \*

Taqiqlangan ekinlarni, ya'ni ko'knor yoki moyli ko'knor, kannabis o'simligi yoxud tarkibida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bo'lgan ekinlarni qonunga xilof ravishda ekish yoki yetishtirish:

- BHMning 25 baravaridan 50 baravarigacha miqdorda jarima;
- 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari;
- 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari;
- 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash;
- 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi...

**«Huquqiy axborot»**  
telegram kanalidan olindi.

## SIFATLI MAHSULOT – SALOMATLIK KAFOLATI

**J**oriy yilning 20-oktabridan 21-oktabriga o'tar kechasi taxminan soat 00:10 larda Ko'kdala tumanidagi «O'makay» YPX maskanida xizmat o'tayotgan Qashqadaryo viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi safdor xodimi, safdor Ilyos O'rinov «Qarshi – Samarqand» yo'nalishida harakatlanib kelayotgan «Mercedes-Bens Sprenter» rusumli avtomashinaning shubhali xatti-harakatlarini sezib, YPX inspektoriga avtoulovni to'xtatishni tavsiya qildi. Avtomashina to'xtatilib, yukxonasi ko'zdan kechirilganida, taxminan 2500 kg kelib chiqishi noma'lum bo'lgan hayvon go'shti hech qanday hujjatlarsiz olib ketilayotgani aniqlandi.



Hujjatlashtirib olingan go'sht viloyat Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi markazi ekspertiza laboratoriyasida tekshiruvdan o'tkazildi va iste'molga yaroqsizligi ma'lum bo'ldi.

Holat yuzasidan viloyat IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimlari tomonidan surishtiruv harakatlari olib borilib, haydovchi V.V.ga nisbatan tegishli chora ko'rildi.

Joriy yilning 10 oyi davomida viloyatdagi mavjud 3 ta muntazam YPX maskanida tegishli veterinariya hujjatlarisiz go'sht va go'sht mahsulotlarini olib o'tish bilan bog'liq 161 ta holat aniqlandi. Natijada 12823 kg iste'molga yaroqsiz go'sht va go'sht mahsulotlari to'xtatib qolindi. Ular ekspertiza laboratoriyasining xulosasiga asosan, iste'molga yaroqsizligi sababli tegishli tartibda yo'q qilindi.

– Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish, viloyatda epizootik va epidemik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida xodimlarimiz tomonidan bozorlar, savdo va go'sht do'konlarida profilaktik nazorat tadbirlari amalga oshirilmoqda, – deydi Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi komandiri, mayor Bobomurod Tursunov.

Viloyat hududida hayvonlarda inson hayoti uchun o'ta xavfli bo'lgan yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish hamda go'sht va sut mahsulotlari yetkazib berish va sotish chog'ida veterinariya-sanitariya qoidalariga rioya etish borasida mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar ham o'tkazilmoqda.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.





Урок духовности и просвещения

# ЭПОХА ВОСТОЧНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ В IX–XII ВЕКАХ

*«Это был период Первого Ренессанса на нашей земле, когда появилась целая плеяда корифеев науки, имена и труды которых и сегодня широко известны всему миру».*

IX–XII века были богаты на исторические события в жизни народов Центральной Азии и всего Востока. В этот период существовали государства Саманидов, Караханидов, Газневидов, Хорезмшахов, в которых огромное внимание уделялось развитию науки и культуры. В начале IX века Маверауннахр стал одним из центров философской школы, изучения математики, медицины, астрономии, географии, истории.

Государства, решив в пределах своих границ проблемы торговли, политики, внешних связей, укрепив гарантии безопасности, создали условия для дальнейшего стабильного прогресса. Мерв, Бухара, Самарканд, Ургенч превращаются в культурные центры.

В академии Багдада работали ученые с мировым именем, основная часть которых являлась выходцами из Центральной Азии. В конце X века в Хорезме была создана Академия Маъмуна, где творили Беруни, Абу Али ибн Сино, Абу Сахл Масихи, Абулхайр ибн Хаммор, Абу Наср ибн Ирак и др.

Среди гениев науки того времени – математики Муса Аль-Хорезми (783-850 гг.), Ахмад Фергани (797-865 гг.).

В числе основных произведений Хорезми – трактат «Китоб ал-жабр вал-муқобала» («Книга о восстановлении и противопоставлении»). Трактат оказал большое влияние на развитие математики в Западной Европе. Используемые в нем термины «алгоритм», «алгорифм», «алгебра» прочно вошли в научный обиход.

Существенным вкладом в развитие мировой науки явились открытия Фергани. Ученый вычислил и предсказал солнечное затмение 832 г. Им были изобретены прибор для наблюдения за движением и поло-

жением звезд, знаменитый «Каирский измерительный прибор Нила».

Мыслитель Востока Абу Наср Фароби (873-951 гг.) был ученым-энциклопедистом. Им создано свыше 160 научных трудов по философии, астрономии, медицине, музыке, языкознанию, литературе. Комментарии к «Метафизике» Аристотеля, сочинение «Фозил одамлар шаҳри» («Трактат о взглядах жителей добродетельного города») свидетельствуют о глубине мировоззрения ученого.

Руководство Академией Маъмуна было поручено Абу Райхону Беруни (973-1048 гг.), творившему в области философии, астрономии, математики, ботаники, минералогии, географии, истории. За 460 лет


## Шавкат МИРЗИЁЕВ.

посвященных вопросам медицины, «Китоб ал-қонун фи-т-тиб» («Канон врачебной науки»), заслуженно получивший статус энциклопедии. Свидетельством мирового значения трактата является то, что в течение нескольких веков он был обязательным учебником в медицинских учебных заведениях Европы.

Махмуд Кашгари (1029-1101 гг.) был знатоком истории, языка, культуры, традиций тюркских народов. Он скрупулезно изучал живой народный язык. Дошедшее до нас его



Нилометр, остров Рода, Египет.



произведение – «Девону луготит турк» («Словарь тюркских наречий»).

Один из видных ученых, живших в XI веке, поэт Юсуф Хос Хожиб (1015-1070 гг.). Произведение «Кутадғу билиг» («Знания, ведущие к счастью») он написал в Кашгаре, где сформулировал ценные мысли об этике, просвещении, воспитании молодого поколения. Книга была преподнесена хану Караханидов Табгачу Буграхану, за что автора наделили должностью хос хожиба

(специального смотрителя при дворе). Ученый изучал языки, философию, историю, географию, логику. В центре его научных интересов были вопросы государственного устройства и управления.

В числе виднейших ученых-исламоведов того периода Имам Бухари (810-870 гг.). Бухари был в Дамаске, Каире, Басре, Куфе, Багдаде, где изучал хадисы, постигал фикх, преподавал. Бухари оставил богатейшее наследие, собрав 600 тыс. хадисов. Наиболее известное его произведение – книга хадисов «Аль-жомий ас-сахийх».

Авторитетный ученый-богослов Махмуд аз-Замахшари (1075-1143 гг.) также оставил большое наследие. Его труды «Асос ал-балоға» («Основы ораторства»), «Муқаддимат ал-араб» («Введение в литературу») посвящены исследованию арабского языка. Аз-Замахшари создано более 50 произведений, касающихся хадисов, литературы, в которых он пишет о стремлении человека к благоденствию.

В глубоком и богатом по содержанию сборнике Ахмада Ясави (1103-1166 гг.) «Девони хикмат» отразились суфийско-философские воззрения мыслителя. Автор пишет о важнейших человеческих качествах – правдивости, верности, справедливости, критикует невежество, жадность и алчность, призывает людей к самосовершенствованию, раскаянию в неблагоприятных поступках.

Деятельность великих ученых-просветителей IX–XII веков внесла бесценный вклад в Восточное Возрождение, развитие мировой цивилизации.

**Абдикамил НАРБЕКОВ,**  
**Даврон РАЗАКОВ,**  
кандидаты исторических наук,  
доценты.



Хорезмская Академия Маъмуна.



Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish...

Shavkat MIRZIYOYEV

### Toshkent shahri

Yurtimizda yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus doirasida IIVning 1-sonli Toshkent akademik litseyida yoshlarning san'at sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib



kelinmoqda. Jumladan, litseyning 2-bosqich o'quvchisi Shahzoda Mirzaahmedova iste'dodli o'quvchilardan bo'lib, joriy yilning 3-4-noyabr kunlari O'zbekiston davlat konservatoriyasida o'tkazilgan «Hayot musiqasi» IV Xalqaro musiqiy tanlovida ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni egalladi. Shuningdek, Shahzoda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga nomzodlar tanlash bo'yicha o'tkazilgan ko'rik-tanlovning Toshkent shahar bosqichiga yo'llanma sohibi bo'ldi.

# NIHOL

## FAXRIMIZGA AYLANAYOTGAN YOSHLAR

### Namangan viloyati

Yaqinda O'zbekiston Shaxmat Federatsiyasi Namangan viloyati «Shoh-Ruh» shaxmat-shashka klubida IIV Namangan akademik litseyi o'quvchilari o'rtasida shaxmat-shashka musobaqasi o'tkazildi. O'g'il bolalar o'rtasidagi o'yinlarda 2-bosqich o'quvchisi Jamshid Saminjanov, qizlar o'rtasidagi o'yinlarda esa 1-bosqich o'quvchisi Sevinch Ismoiljonova g'oliblikni qo'lga kiritishdi.



### Navoiy viloyati

Adabiyotga bo'lgan muhabbatini ko'rgan bobosi va ota-onasi Diyora Sharopovadan kelgusida ajoyib pedagog chiqsa kerak, deb o'ylashardi. Ammo unday bo'lmadi. Nozik his-tuyg'u sohibasi bo'lgan Diyoraning qalbida mustahkam iroda va gurkiragan shijoat joy olgan ekan. Shu bois, qiz bola bo'lishiga qaramay, ichki ishlar organlari xodimasi bo'lishni maqsad qildi. Sinov imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib, IIV Navoiy akademik litseyida o'qishni davom ettirdi. Ayni paytda mazkur litseyning a'lochi o'quvchilaridan biri.

– IIV Navoiy akademik litseyiga qabul qilinishim men uchun ilk imkoniyat edi, – deydi Diyora. – Ustozlarimdan olgan bilimlarim, ichki ishlar organlari faoliyati haqidagi ma'lumotlar mening sohaga bo'lgan qiziqishimni yanada orttirdi. Litseyda o'qishni yakunlab, IIV Akademiyasining tezkor-qidiruv yo'nalishida o'qishni davom ettirmoqchiman. Bo'sh vaqtlarimda O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, Zulfiyaxonim she'rlar to'plami hamda Said Ahmadning «Ufq» romani va Yunus O'g'uzning «Amir Temur» asarlarini sevib o'qiyman.



### O'ZBEKISTONIM

Sen jo'shqin daryosan tinib-tinchimas,  
Qalbinga ohorli hislar joylagan.  
Sen azim chinorning uzun umrisan,  
Navqiron novdasi ko'kka bo'ylagan.

O'tmishing buyukdir, aziz, qadrli,  
Ne-ne daholarni ko'rgan maskansan.  
Ajdodlar qoldirgan meroslar kabi,  
Tarix chorbog'ida to'kis o'sgansan.

Bag'ringda ulg'ayar turfa nihollar,  
Bo'lar ular ertang, baxtli kelajak.  
Shunda tanir seni buyuk dunyolar,  
Ulkan yutuqlaring ular ko'rajak.

Aziz diyorimsan, ulug' maskanim,  
Ta'riflarim ojiz jannatmakonim.  
Onamday mehribon, onamday suyak,  
Dunyoda tengsizim – O'zbekistonim!

**Diyora SHAROPOVA,**  
IIV Navoiy akademik litseyi o'quvchisi.

### Qoraqalpog'iston Respublikasi

**Men 2007-yili Amudaryo tumani «Qumyop» MFYda tavallud topganman. Hozirda O'zbekiston Respublikasi IIVning Qoraqalpoq akademik litseyida ta'lim olmoqdaman.**

Avval tumanimizdagi 39-sonli umumta'lim maktabida o'qiganman. Maktabda o'qib yurgan paytlarimdanoq, menda she'r yozishga qiziqish paydo bo'lgandi. Ilk she'rlarim 9-sinf paytlarimda tumanimizdagi «Taraqqiyot ko'zguisi», «Mening oilam» gazetalarida chiqqa boshladi.

2023-yili avgust oyida ilk she'rlar to'plamim «Ko'ngil jildi» nomi ostida nashrdan chiqqan.

She'riyatga, umuman, adabiyotga qiziqishimni oshirgan ustozim Rayhon Matjonovadir. Ularning ko'magi bilan 2021-yili «Besh tashabbus» loyihasining «Mushoira» yo'nalishi bo'yicha sektorda birinchi, tumanda 3-o'rinni, bundan tashqari, ko'plab insho tanlovlarida faxrli o'rinni egalladim.

Eng avvalo, mana shunday yutuqlarga erishishimga sababchi bo'lgan insonlar ota-onamdir. Ularning qo'llab-quvvatlashlari bilan qator yutuqlarga erishib kelyapman.

Kelajakda maqsadlarim juda ko'p, ular ichida eng oliysi – IIV Akademiyasiga o'qishga kirib, Vatanimga, xalqimga xizmat qilishdir. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini olib, el-u yurtimga fidoyi shoira bo'lishni niyat qilganman.



### VATANIM

Vatanim, bag'ringda o'syapman baxtli,  
Sen borsan, g'amim yo'q, yuraman shaxtli.  
Sen bizga iftixor, noming sharafli,  
Har olgan nafassan, bizga kerakli...

Hech qaysi Vatanga almashmam seni,  
Axir, bolam, deding ulg'aytib meni.  
Endi ayt, farzanding senga deb neni –  
Ilinsin, sen unga ilingan kabi.

Senda topgan o'sha huzur-halovat,  
Boshqa hech jahonda qilmas tarovat.  
Sening chiroyingdan gullar xijolat,  
Men uchun bu borliq sendan iborat.

Vatanim, ko'ksimda urgan bu yurak,  
Sen uchun tilaydi ezgu bir tilak.  
Menga hamxona yo'q o'zingdan bo'lak,  
Ishon, noming ko'kda yangrashi kerak!

**Feruz RAHIMOVA,**  
IIV Qoraqalpoq akademik litseyining  
2-bosqich o'quvchisi.







# ИСАЖОН СУЛТОН: «ТАРИХНИ ҲАҚҚОНИЙ ЖОНЛАНТИРИШ КЕРАК»

**Исажон Султон – замонавий ўзбек насрининг йирик вакили ва ҳеч муболағасиз миллий адабиётимиз ривожига сезиларли равишда ҳисса қўшиб келаётган номдор адибларимиздан биридир. 2014 йилда «Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими», 2021 йили «Ўзбекистон халқ ёзувчиси» фахрий унвонлари билан тақдирланган.**



1967 йилда Фарғона вилояти Риштон туманидаги Авазбой қишлоғида таваллуд топган Исажон Султон ўрта мактабни олтин медаль билан тамомлагач, 1985–1990 йилларда Тошкент давлат университети (ҳозирги ЎзМУ) нинг журналистика факультетида таҳсил олади. Унинг асарлари инглиз, турк, рус ва немис тилларига таржима қилинган. Бир китоби АҚШда, икки тўплами Туркияда босилган. Молдова адабий нашрларини ҳам забт этишга улгурган.

«Буюк мутафаккир ва қомусий олим Абу Райҳон Беруний таваллудининг 1050 йиллигини халқаро миқёсда кенг нишонлаш тўғрисида»-ги Президент қарори ижросини таъминлаш ва буюк бобокалонимизга эҳтиром кўрсатишга тарихчи олимлар билан бир қаторда, ижодкорлар ҳам муносиб ҳисса қўшдилар. Жумладан, Исажон Султоннинг «Абу Райҳон Беруний» тарихий-биографик романи бунга ёрқин далил дейишимиз мумкин.

Ёзувчи сўнгги йилларда тарихий шахслар образига кўпроқ мурожаат қиляпти. Бунинг сабабини адибнинг ўзи шундай изоҳлайди: «Янги Ўзбекистон сиёсати чалкаштирилган ва «кўмиб ташланган» тарихимизни ҳаққоний жонлантириш учун имкониятлар яра-

тиб берди. Мамлакат Президентининг «Биз шу вақтгача тарихнинг ўзимизга ёққан жойларини олиб, ёқмаган томонини яшириб ўтдик. Бировга ёқадими-ёқмайдами, ғуруримизми-армонимизми, муваффақиятми ё хиёнатми – ҳаммасини ҳаққоний ёзиш керак» деган сўзлари олимлар ва ижодкорлар учун ҳақиқат сари кенг йўл очди. Ўзбек халқининг тарихи жуда бой ва ранг-баранг. Ҳеч иккиланмай айтиш мумкин:



ҳарбий ишлардан давлатчиликкача, ҳунармандчиликдан шаҳарсозликкача бўлган барча соҳаларда, шу билан бирга, ижод ва фанда юлдуздай чакнаган, ахлоқи, билими ва закоси билан инсониятга ўрнак бўлишга арзийдиган юзлаб аждодларимиз

бор, улар ўтмиш қаърида авлодлар дуосини кутаётган бўлса не ажаб? Шу сабабли, олимлар ва адибларимиз олдида тарихни ҳаққоний жонлантириб, у қаҳрамонларимизни етишиб келаётган авлодга таништириш вазифаси турибди. Асосий сабаб шу!»

Ҳа, у ёшлар маънавиятини юксалтириш йўлида изланишдан толмаяпти. Бу орқали юқоридаги сўзларига монанд равишда бой тарихимизнинг муҳим шахсларига доир ёрқин асарлар ёзмоқда. Айниқса, ҳали яратилганига кўп бўлмаган бўлса-да, нафақат Ўзбекистонда, балки бизга қардош бўлган мамлакатларда ҳам шуҳрат қозонишга эришган «Алишер Навоий» ва «Билга хоқон» тарихий-биографик романини алоҳида эътироф этиш жоиз. Бизнингча, бу бетакрор ижод намуналарини каттаю кичик бирдек ўқиса, тарихнинг кўплаб янги қирраларини кашф қилса, ажаб эмас.

2016–2020 йиллар оралиғида яратилган «Алишер Навоий» романида муаллиф асарнинг бош қаҳрамонини ҳаёт ичида, оддий ва салтанат одамлари орасида жуда табиий равишда тасвирлайди. Айни дамда романнавис шаҳарларни ҳам худди одамдек жонлантиради. Роман композицияси ҳаз-

рат Алишер Навоийнинг «Ҳазойин ул-маоний» девони ички структурасига мос «Фаройиб ус-сиғар», «Наводир уш-шабоб», «Бадоеъ ул-васат», «Фавоид ул-кибор» деб аталган тўрт қисмдан иборат. Алишернинг болалиги, ёшлик йиллари, ўрта ёшда кўрган-кечирганлари, айниқса, кексалик палласидаги фойдалар романда батафсил баён қилинади. Романдаги ўқувчи қалбини ларзага соладиган эпизодлардан бири — бу Мўмин Мирзо ўлими билан боғлиқ саҳифалар. Ўша паллада гўё «сарой узра мусибат қуши учиб юрган»дек бўлади. Ёзувчи таъбирича, «тун жодугари вақт хуфтондан ўтгандан сўнг макр-ҳийла тўрини» кенг ёяди. Кейин эса «мастлик булутлари зеҳн ойини тугал беркитади» ва Султон Ҳусайн сархушлиқда ўз

набираси қатли ҳукмига имзо қўяди.

Энди эса ёзувчи қаламига мансуб навбатдаги «Билга хоқон» романи борасида айрим ҳақиқатларни очиқлаймиз. Асар 2019 йилда Ёзувчилар уюшмаси муассислигидаги «Шарқ юлдузи» жур-

налида нашр қилинган. Жанрига кўра, Ўзбекистонда бу мавзуда яратилган илк роман саналади. 2022 йилда «Factor Books» нашриёти томонидан китоб ҳолида чоп этилган.

Роман тарихийлик тамойили асосига қурилгани учун, ёзувчи ортиқча дабдабозликка, романтик кайфиятларга берилмайди. Билга хоқон, Тўнқоқ ва Қултегин образларини идеаллаштирмаган ҳолда, уларнинг реал қиёфасини чизади. Адиб хоқонликнинг таназзулига ақл ноқислиги – эл пешволарининг узоқни кўра билмасликлари, «Бундан кейин нима қилишимиз керак?» деган саволни ўз олдиларига қўя олмаганлари сабаб эканига ишора қилади. Романининг илҳом билан баён қилинган «қиз қувди», «кўпкари» лавҳалари, бахши дўмбира билан куйлаган қўшиқ лавҳалари қадим удумларимиз ва аъноларимизни жонлантиришга хизмат қилган. Роман халқаро миқёсда ҳам тан олинди ва 2022 йил 26 сентябрда Туркиянинг Бурса шаҳрида ўтказилган «Тилда, фикрда, ишда бирлик – туркий дунё адабиёт (роман) мукофотлари» танловида ғолибликни қўлга киритди.

**Аброр ПОЁНОВ.**





Место службы — Караульные войска

## ВЫПОЛНЯЯ ОТВЕТСТВЕННЫЕ ЗАДАЧИ

**В войсковой части № 7553 Караульных войск МВД Республики Узбекистан особое значение в обучении личного состава уделяется практическим занятиям, в ходе которых военнослужащие набираются опыта, совершенствуют навыки коллективных действий.**

– Учения проводятся планомерно, – говорит заместитель командира по воспитательной работе подполковник Азизбек Юсупов. – В ближайшее время пройдут учения с задействованием нескольких подразделений части, будет отрабатываться слаженность их действий.

Сержант второй степени Бехзод Хомидов – заместитель командира группы оперативного назначения. После окончания срочной службы в 2010 году принял твердое решение продолжить службу по контракту. В войсковой части № 7553 Караульных войск МВД, расположенной в Андижане, он с 2011 года. Служил старшим специалистом группы. На занимаемой должности с 2022 года.

Бехзод участник состязаний по рукопашному бою не только областного уровня, но и среди личного состава Караульных войск Республики Узбекистан, обладатель 11 медалей. Обучается на заочном отделении Академии МВД.

– С признательностью вспоминаю наставника – подполковника в отставке Нодирбека Нишонова, – делится Б. Хомидов. – Благодаря его настойчивости я стал настоящим воином, научился оперативно действовать в сложной обстановке, правильно настраивать контакт с подчиненными.

Сегодня Бехзод Хомидов сам является наставником. Среди его учеников сержант второй степени Мухаммадтохир Ибрагимов,



сержант третьей степени Шерзод Юлдашев, младший сержант Шохруз Нунназаров.

В войсковой части особое внимание уделяется социальным вопросам. Ведется целенаправленная работа по улучшению

жилищных условий военнослужащих и членов их семей. Ранее 40 семей получили служебные квартиры в новом благоустроенном четырехэтажном доме.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.

Андижанская область.

**На снимке:** заместитель командира группы оперативного назначения (в центре) сержант второй степени Бехзод Хомидов с бойцами группы – сержантами третьей степени Фахриддином Каримовым и Шерзодом Юлдашевым.

■ Навоийская область

## РАБОТА НА ОПЕРЕЖЕНИЕ



**В соответствии с распоряжением МВД в Навоийской области организованы специализированные учебно-практические курсы по совершенствованию деятельности отделов профилактики правонарушений, повышению профессиональных навыков их сотрудников.**

На шестидневные учебные курсы прибыли старшие инспекторы городских и районных отделов по вопросам женщин и инспекторы-психологи. Специалисты разных сфер провели занятия и дискуссии по актуальным темам, касающимся правонарушений среди женщин и несовершеннолетних, а также мерам профилактики. Были даны разъяснения относительно работы с

документами, принятыми главой государства, правительством, министерствами и ведомствами, о механизмах реализации поставленных в них задач.

На практических занятиях инспекторы-психологи рассмотрели методы работы с несовершеннолетними, способы вывода их из стрессового состояния, снятия агрессии, формы оказания социально-правовой помощи.

Участники курсов повысили знания в таких вопросах, как раннее выявление факторов, создающих предпосылки для совершения преступлений и правонарушений, индивидуальный подход к лицам, склонным к нарушению закона, что позволит им в дальнейшем повысить эффективность проводимой работы.

**Махлиё ХОЛОВА,**  
соб. корр.





XORIJ TAJRIBASI

# YO'LLARDAGI TIRBANDLIK yondashuv va yechim

S o'nggi yillarda mamlakati-miz yo'llari, ayniqsa, poytaxtimizda transport oqimi ko'payishi natijasida ilgari faqat ma'lum vaqtda bo'ladigan tirbandliklar hozir kun davomida yuzaga keladigan bo'lib qoldi. Buning oldini olish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yo'llar kengaytirilyapti, poytaxtimizning katta ko'chalaridagi yo'llarda jamoat transporti harakatlanadigan yo'laklar tashkil etilmoqda. Afsuski, shunga qaramay, tirbandliklar barham topmayapti.

Xo'sh, bu muammoni qanday hal qilish mumkin? Shu o'rinda bu muammoga ancha oldin duch kelgan rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, samarali usullarini bizning yo'llarga tatbiq etish foydadan xoli bo'lmaydi.

Tirbandliklarning oldini olish maqsadida **London**da ayrim yo'llar pullik qilib qo'yilgan. Shunday yo'ldan harakatlanishingiz uchun 14 funt sterling to'lashingiz kerak. Bundan tashqari, Londonda ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi eski mashinalar haydovchilari serqatnov ko'chaga kirishi uchun 12,5 funt sterling to'lashi lozim.

**Xitoy**da yo'llarga o'rnatilgan juda ko'p kameralar orqali tirbandliklar yuzaga kelishiga sabab bo'layotgan mashinalarga qarshi ayovsiz kurashiladi. Shuningdek, mamlakatda tirbandliklarga qarshi kurashda jamoat transportining erkin harakatlanishiga katta urg'u berilgan. Bugungi kunda deyarli har bir yirik shaharda jamoat transporti uchun alohida yo'laklar mavjud. Avtobusda odamlar yengil mashinadan ko'ra manzillariga tezroq yetib borishadi. Chunki ular tirbandlikda qolib ketishmaydi.

Chin yurtida yangi avtomobillarni ro'yxatdan o'tkazishga cheklov joriy etilgan. Harakatlanish esa avtomobillarning davlat raqamlari bilan tartibga solinadi. Masalan, dushanba kuni 1 va 5 raqamlari bo'lgan avtomobillar, seshanba kuni – 2 va 6 raqamlari

bo'lgan avtomobillar harakatlanishi mumkin. Dam olish kunlarida yo'llardan foydalanishga barchaga ruxsat beriladi.

Hozir mamlakatda yengil va yuk mashinalari uchun yerosti tunnallari tizimi ishlab chiqilib, amalga joriy etilmoqda. Bu yaqin kelajakda jamoat transporti bemaol harakatlanishi uchun yanada qulaylik yaratishi turgan gap.

			
<b>LONDON</b>	<b>PEKIN</b>	<b>SINGAPUR</b>	<b>PARIJ</b>
Pullik yo'llar	Yangi avtomobillarni ro'yxatdan o'tkazishga cheklov	Davlat boji avtomobil narxidan uch baravar qimmat	Jamoat transportiga katta imkoniyat berilgan

**Gretsiya**da tirbandliklarni bartaraf etishning noodatiy usuli qo'llaniladi. Bunda hammasi sanalarga bog'liq. Masalan, juft kunlarda shaharga faqat juft raqamli avtomashinalar kirishi mumkin. Toq kunlarda toq raqamli avtomashinalar kirishiga ruxsat beriladi.

**Germaniya**da yo'llardagi muammolarga qarshi kurash ancha oldin boshlangan. Birinchidan, jamoat transporti shu qadar yaxshi yo'lga qo'yilganki, yo'lovchi belgilangan manzilga yetib borish vaqtini bir daqiqa ichida biladi. Ikkinchidan, nemislar yo'llarda harakatlanish jarayonini optimallashtirish uchun svetoforlarning ishlashini sinxronlashtirishgan. Bular-dan tashqari, tirbandliklarning oldini



olish uchun korxonalar va tashkilotlar ish kunining boshlanish va tugash vaqtini o'zgartirgan: ba'zilar ish joyiga erta-lab 7 da, ba'zilar 8 yoki 9 da keladi.

**Amerika Qo'shma Shtatlarida** pullik avtomagistral va alohida yo'laklar juda ko'p. Agar siz yo'lovchilarni, masalan, hamkasblaringizni o'zingiz bilan olib ketsangiz, chegirma yoki boshqa bonuslarga ega bo'lasiz.

Nyu-York shahridagi Brodvey ko'chasida esa 250 km masofadan ortiq velosiped yo'laklari yaratilgan. Shu bilan birga, avtobus liniyalari ko'paytirilgan, 2009-yildan buyon bu ko'chada shaxsiy avtomobillar harakatlanmaydi.

**Singapur** hukumati shaxsiy avtomobillar sonini cheklab, taksilarni ko'paytirdi va narxini pasaytirdi. Bu davlatda sotib olingan mashinani ro'yxatdan o'tkazish uning narxidan 1,4 barobar qimmatroq. Shuningdek, import qilingan avtomobillar uchun juda yuqori, taxminan mashina narxining 41 foizini tashkil etadigan himoya boji joriy qilingan. Qolaversa, avtomobilni boshqarish uchun o'n yillik litsenziya 10 mingdan 20 ming dollargacha turadi. Haydovchilarda esa maxsus kartalar mavjud bo'lib, ulardan yo'l haqi, to'xtash joyi va boshqalar uchun mablag' avtomatik ravishda yechib olinadi.

Guvohi bo'lganingizdek, ko'plab rivojlangan davlatlarda tirbandlik muammosi turli aqlli choralar tufayli bartaraf etib kelinmoqda. Mamlakatimiz yo'llaridagi tirbandlik muammosiga ham yechim bor, albatta. Faqat unga to'g'ri yondashish talab etiladi. Shaxsiy avtomashina haydovchilari avtobuslarga yo'l bermay jamoat transporti uchun yo'laklarni band qilaversa, haydovchilar piyodalarni, piyodalar haydovchilarni ayidor qilaversa, jamoatchilikda qonun-qoidalarga rioya qilish ko'nikmasi shakllanmasa, hammasi befoyda bo'laveradi.

**Foziljon MAMASHARIPOV,**  
o'z muxbirimiz.

BO'LGAN GAP

Yaqinda qiziq holatning guvohi bo'ldim. Bir kishi piyodalar yo'lagiga terib qo'yilgan avtomashinalarni aylanib o'tar ekan, o'ziga o'zi: «Bular, yo'lovchilarni bir chaqaga olmaydi, avtoularning bo'lsa, hech kimni pisand qilmaysanlarmi?», dedi. Ochig'i, bunaqa holatlarga e'tibor qilmayman, aylanib o'taveraman, to'g'ri, sal noqulaylik tug'diradi.

Ammo o'sha kishining astoydil jahli chiqayotganligini ko'rib dilimdagi tilimga ko'chdi: «Asabni buzmag, baribir foydasi yo'q, ular bizni, biz esa haydovchilarni hurmat qilmaymiz...». Qisqasi, ikkovimizning suhbatimiz qizib ketdi. Avtomashinalarning piyodalar yo'lagiga qo'yilishi ortidan ba'zida tuproq, loy yoki obodonlashtirish xodimlari ekan chimni bosishga to'g'ri kelayotgani, avtomashinalar og'irligidan bruschatka terilgan piyodalar yo'lagining buzilib ketayotganidan nolidik.

Keyin yo'ldoshim har kuni ishga yayov borib kelishini, bo'lar-bo'lmasga signal chalaveradigan, piyodalar o'tish joyigacha baland tezlikda kelib, chiyillatib tormozni bosadigan «o'pkasi teshik» haydovchilardan rosa to'yganligini

## ULAR BIZNI, BIZ ULARNI...

achchiq bilan bayon qildi. O'z navbatida, men piyodalar yo'lining to'g'ri kelgan joyidan kesib o'tishi tufayli haydovchilar asabiylashtirishini bildirdim.

U gapimga qo'shildi: «Ha, ko'pchiligimizda madaniyat yetishmaydi, qonunlarni hurmat qilmaymiz, mana, ko'chalarga radarlar qo'yilyapti, hammasi joyiga tushib ketar». Shu payt yana piyodalar yo'lagini egallagan avtoularlarga duch keldik va katta yo'l

chekkasidan harakatlana boshladik. O'sha chog'da katta tezlikda kelgan avtomashina ariqdan toshib chiqayotgan suvni sachratib o'tdi.

Sal oldinroqda bo'lganim uchun kiyimlarimga hech narsa qilmadi. Ammo loyqa suv sheringimning och kulrang plashining old qismini harbiylarning ola-bula kiyimiga o'xshatib qo'ydi. U bir zum jim turdi va alam bilan haqorat aralash qarg'andi. Agarda qarg'ishi amalga oshgudek bo'lsa, avtomashina allaqachon pachaqlanib, g'ildiragi teshilib ketishi kerak edi.

Keyin yig'lagudek bo'lib ro'molchasi bilan kiyimlarini artishga tutindi va dedi: «Sizga tegmabdi». Men xijolat tortdim. Yana biroz birga ketdik, ammo hangomamiz boshqa qovushmadi.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o'z muxbirimiz.



FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

## UNING HAYOTIY HIKMATI

**Sirdaryo viloyati IIB faxriysi Shokir Xudoyberdiyev xodimlar va tizimning moliyaviy barqarorligiga munosib hissa qo'shgan insonlardan biridir.**

U 1968-yilda Guliston tumanida dunyoga kelgan. Toshkent xalq xo'jaligi institutida moliya va buxgalteriya sirlarini obdan o'rgangan yosh mutaxassis Guliston shahar, Sirdaryo viloyati moliya organlarida bir necha yil turli lavozimlarda ishladi. O'z ishinin ustasi, mehnatdan qochmaydigan kadr-ga doim har qanday eshiklar ochiq. Shu bois uch-to'rt yillik ish tajribasiga ega bo'lgan Shokir Xudoyberdiyevni viloyat IIB Moliya-xo'jalik bo'limiga ishga taklif qilishadi. Yosh moliyachi bu taklifni bajonidil qabul qiladi. Shu tariqa, uning hayotida yangi davr boshlanadi.

Dastlab uni boshqarma moliya-taftish bo'limiga taftishchi vazifasiga ishga qabul qilishadi. Ish oson emasdi. Mas'uliyat va talab katta qo'yilgandi. Unga ustozlari IIV Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i lavozimda ishlagan podpolkovnik Jamoliddin Sulaymonov, polkovnik O'tkir Ashuratovlar katta yordam berishadi. Uning vazifasi moliyaviy xatoliklar, talon-toroj, rastarataning oldini olish, bartaraf etishdan iborat edi. Hisob-kitob ilmini puxta egal-

lagan Shokir bu ishni a'lo darajada uddalaydi. Uning qat'iyati evaziga bir necha yil davomida pul-moliya balansidagi xatoliklar bartaraf etildi.

Sh. Xudoyberdiyevning Sirdaryo viloyati IIB Pensiya bo'linmasi boshlig'i lavozimda ishlagan paytida nafaqaga chiqishda ko'plab xodimlar uning jonkuyarligi, o'z yordamini ayamaslik xislatidan bahramand bo'lishgan. Shuningdek, pensiyadagi xodimlarning ijtimoiy himoyasiga ham katta e'tibor qaratib kelganini ko'pchilik e'tirof etadi. Qariyb yigirma bir yil davomida Sirdaryo viloyati IIB YHXB bosh buxgalteri, viloyat IIB Nazorat-taftish bo'limi boshlig'i vazifalarida samarali faoliyat ko'rsatgan Shokir Xudoyberdiyev «A'lo xizmatlari uchun» ko'krak nishoni sohibi. Uning Sirdaryo tumani IIB profilaktika inspektori, mayor G'ayrat To'rayev, IIV Sirdaryo akademik litseyi boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Inomjon Turdaliyev kabi o'nlab shogirdlari bor.

– Pul hamisha tanqis bo'lib tuyulaveradi, – deydi Shokir Xudoyberdiyev. – Boisi, inson ehtiyojlarining chek-chegarasi yo'q. Inson halol yo'l bilan topganiga shukr va qanoat



qilib, boridan ustakorlik bilan foydalanib, birini ikki qilib yashasagina baxtli yashay oladi. Moliya ilmidan ham, buxgalteriya sohasidagi uzoq yillik tajribamdan ham chiqargan xulosam shu.

O'zi doim ana shu aqidaga qattiq rioya qilgan ushbu shaxs kamsuqum, kamtar yashashni o'ziga ep bilganlardan. Shu bois oilasidan baxt, hayotidan halovat topgan. U turmush o'rtog'i bilan to'rt nafar farzandni voyaga yetkazib, ikki qiz, bir o'g'ilni

uyli-joyli qilgan. Sakkiz nabiraning bobosi ekanidan bag'oyat faxrlanadi. Farzandlari ham turli tizimlarda moliya sohasida faoliyat ko'rsatishadi. Ayni paytda 55 yoshni qarshilagan Shokir Xudoyberdiyev hamon safda. U Davlat Ekologik ekspertiza inspeksiyasining Sirdaryo viloyati filialida mutaxassis vazifasida faoliyat ko'rsatmoqda.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**  
o'z muxbirimiz.

*Sirdaryo viloyati.*

CHEGARA HUDUDLARDA

## ISH TO'G'RI TASHKIL ETILSA...

**K**atta leytenant Mirsaidxo'ja Mamadalixojayev Chor-toq tumanidagi Qirg'iziston bilan chegara hudud – «Arbag'ish» mahallasi profilaktika inspektorligiga tayinlanganiga ko'p bo'lgani yo'q. Mirsaidxo'ja yangi xizmat hududiga o'tgandan so'ng mahalla «qizil» toifadan «yashil»ga o'tgani buning tasdig'i bo'ldi.

– Bu yutuq zamirida profilaktika inspektorining kasbiy salohiyatini, jonbozligini ko'rish mumkin, – deydi tuman IIB HPB boshlig'i, kapitan Mirzohid To'xtaboyev. – Mirsaidxo'ja Mamadalixojayevning hujjatlar yuritishi, odamlar bilan tez til topishish qobiliyatini boshqa hamkasblariga ibrat qilib ko'rsatsak arziydi. Har bir mahallada profilaktika inspektori ishni to'g'ri tashkil etsa, ko'zlangan maqsadga, albatta, erishiladi.

Katta leytenant Mirsaidxo'ja Mamadalixojayevning sa'y-harakatlari bilan bu yil 6 ta oila yarashtirildi, ichkilibozlikka berilgan 4 nafar fuqaroni davolash choralari ko'rildi. «Mahalla beshligi» hamkorligida 163 nafar xotin-qizga tikuv mashinalari olib berildi, 39 nafar ayolga bir martalik moddiy yordam ko'rsatildi. Bundan tashqari, turarjoyga muhtoj yana bir nafar ayolga subsidiya asosida uy-joy ajratildi.

Hududda jinoyatlar sonining keskin kamayishida 8 ta ko'chaga

videokuzatuv moslamalari o'rnatilgani ham katta o'rin tutdi.

– Nazorat bor joyda natija bo'ldi, – deydi katta leytenant Mirsaidxo'ja Mamadalixojayev. – Mahalladagi oshxona va kafelarga, savdo do'konlariga ham kuzatuv kameralari o'rnatildi. Masalan, tadbirkor Sardorbek Bozorov ochgan kafeda o'tgan yili jinoyat sodir etilgan edi. Ko'rsatmaga binoan, tadbirkor kuzatuv kamerasi o'rnatgani uchun bu yer eng tinch joyga aylandi.

Joriy yilning o'tgan davrida katta leytenant M. Mamadalixojayev ishtirokida qonunbuzar shaxslarga nisbatan 185 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi. Ularning 25 nafari farzandi taqdiriga befarq qaragan ota-onalardir.

Mahalla chegara hududda joylashgani uchun profilaktika inspektorining zimmasidagi mas'uliyatli vazifalar zalvorli. Bunday hududlarda etnik nizolar chiqmasligining oldini olish, ayniqsa, muhim. Shu bois profilaktik tadbirlarning ta'sirchanligini oshirishga alohida e'tibor qaratil-yapti. Jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi faoliyat tufayli mahallada osoyishtalik ta'minlanmoqda.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.

*Namangan viloyati.*





▶ **ТУРМУШ ЧОРРАҲАЛАРИДА**

## ҒАМ ВА ҚУВОНЧ

**Сўрида ўтирган чолни кўряпсанми, янганнинг қариндоши бўлади. Бечоранинг дарди кўп, лекин сездирмайди, ҳалиям иродаси мустаҳкам экан, унинг бошига тушганларни бошқа биров кўтара олмасди.**

Қисқаси, бундан 15 йиллар олдин катта ўғлини уйлантираман, деб тўйга чақирди. Энди жўнаймиз, дея шайланиб тургандик, кўнғироқ қилиб, куёв бўлмишнинг вафот этганлигини айтиб қолишди. Шу тариқа, никоҳ тўйига отланиб, азага етиб бордик. Тумонат одам йиғилган, яқинларнинг фарёидан одамнинг юраги эзилади. Янада ачинарлиси, жасад йўқ эди.

Маълум бўлишича, йигит гиёҳвандлик моддаси олиб келиш учун қўшни давлатга ўтишга уринибди. Аммо чегарага яқин жойда қоядан қулаб тушган. Ўртоқларидан бирининг айтишича, тўйни дабдабали ўтказиш учун шундайин жиноятга қўл урганмиш. Қисқаси, кўзларини нафс кўр қилиб қўйган йигит жонини хатарга қўйишдан, шунингдек, у томонлардан келтирадигани кўплар бошига кулфатлар солиши мумкинлигидан чўчимаган.

Энг ёмони йигитнинг танаши мажақланиб кетганди. Сўнг қопга солиб, тоғда бошқа жонивор юра олмагани учун эшакка юклашган. Кўмар чоғда чорасиз ота: «Ҳаммасига мен айбдорман», дея ўксиб-ўксиб йиғлади. Ўғлининг тўйига етарлича пул жамғара олмаганидан азобда қолган бўлса керак, деган ўйга бордим.

Сал кейин билдим, у бундан бир неча йил илгари гиёҳванд модда сотиш би-

урганлигидан эзилаётганди.

Бу ҳаммаси эмас. Ўша воқеадан бир йил ўтар-ўтмас, уйимга 18–20 ёшли икки ўғли билан келди ва деди: «Болаларим гиёҳванд бўлиб қолган, яқинда даволатдим, уйда бўлса, бирор-та танишидан наша олиши

Чолнинг тушкун аҳволини кўриб, рад қилолмадим. Аммо ҳафта ўтмасдан, меҳмонлар тонгда кўчага чиқиб, тунда қайта бошлашди. Кундузи ишда бўлганим учун назорат қилолмасдим, қолаверса, кап-катта йигитлар, зерикшаётгандир, де-

тиришларидан хавфсираб, уйига жўнатиб юбордим. Кейин эшитдим, йигитлар тузалишмаган, даволашлар фойда бермаётган экан.

Бу воқеани ҳамқишлоғим уйига тўйга борганимда сўзлаб берди. Гиёҳванд моддага ошнолик туфайли бир йигитнинг ҳаётдан кўз юмгани, унинг икки укаси эса ўликдан нари-бери бўлиб, нафақат ўзларини, жон жигарлари, турмуш ўртоғи ва фарзандларини ҳам азобга қўйганликлари ҳақида ўйлар эканман, кўнглимга оғриқ кирди.

Аммо тушкун кайфият юрагимни тезда тарк этди. Ғамли хаёлларимни карнайнинг баланд овози тўзғитиб юборди. Ақлли, ёмон одатлардан холи куёв

болани кўриб, юрагимга илиқлик қайтди. Беихтиёр тилимга «Бахтли бўл, ука», деган сўзлар келди.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**  
**ўз мухбиримиз.**  
*Жиззах вилояти.*



лан шуғулланиб, қамалиб чиққан экан. Ота гуноҳларининг касофати болаларига

мумкин. Бирон ой шу ерда яшаб турса, тузалиб кетармиди...».

ган хаёлга бордим. Бироқ адашганлигимни ҳожатхонада икковлашиб сигарета чекишаётганидан сездим. Аниқроғи, у ердаги тутуннинг тамакига алоқаси йўқ эди. Хуллас, ташвиш кел-

▶ **АСР ВАБОСИ**

## ЖАМИЯТНИ ЕМИРУВЧИ ИЛЛАТ

**Гиёҳвандлик қандай ифодаланади ва қандай инсонларни биз гиёҳвандлар деб аташимиз мумкин?**

Гиёҳвандлик – кайф берувчи бирор тиббий гиёҳни ёки сунъий равишда тайёрланган моддани истеъмол қилиш, чекиш, хидлаш, танага суртиш ёки инфекция йўли билан қон томирларига юборишдир. Гиёҳвандлик моддаларининг хавфли хусусияти шундан иборатки, уларни бир марта татиб кўрган шахс қайта истеъмол қилишга мойил бўлади, 2–3 марта истеъмол қилиш эса қарамликни келтириб чиқаради.

**ГИЁҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИГА НИМАЛАР КИРАДИ?**

Афюн, морфин, наша, кокаин, кодеин, геронал, гашиш ва героин гиёҳвандлик воситалари сирасидандир. Улардан героин энг олий гиёҳвандлик моддаси ҳисобланади. Уни бир марта истеъмол қилган шахс ортга қайтиши жуда қийин.

**ИНСОН СОҒЛИФИГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ**

Бу моддаларни узлуксиз қабул қилиш одамларда руҳий ва соматик ўзгаришларга олиб келади.

Уйқусизлик, хотира пасайиши, бош оғриғи, асабийлашиш ва

қаришнинг тезлашиши руҳий ўзгаришлардан дарақдир.

Қайт қилиш, ҳазм тизимининг бузилиши, нафас қисилиши, юрак безовталиги ва ҳоказолар соматик ўзгаришлардир.

Хумор пайтида мушаклар, суяклар қақшаб оғрийди. Бу даврда беморда руҳий ўзгаришлар кузатилиб, ўзи билан ўзи гаплашади, алаҳсирайди, ишга лаёқатсиз бўлиб қолади. Моддий ва маънавий қашшоқликка юз тутиб, охири руҳий хасталикка чалинади.

**ГИЁҲВАНДЛИКНИНГ ЗУРРИЁТГА ТАЪСИРИ**

Гиёҳвандлардан дунёга келган чақалоқлар ақли заиф, юраги носоғлом, ногирон бўлиб туғилади. Кўп ҳолларда улар узоқ яшамайди. Бу белгилар болаларнинг фенотипида кузатилмаса-да, генотипида албатта, юзага чиқади.

**БУ ТУЗОҚДАН ЧИҚИШ МУМКИНМИ?**

Гиёҳвандлик балосидан қайтиш жуда оғир. Агар у героингача етиб борган бўлса, қайтиши даргумон. Лекин кўп нарса ўша беморнинг иродасига боғлиқ. Қанчалик оғир бўлмасин, ҳаётимизда бу касал-

ликдан фориг бўлганлар, ундан тузалганлар ҳам бор.

Тўлиқ даволаниш катта маблағни талаб қилади. Агар даволаниб бўлгач, маълум вақтдан сўнг яна «оғу» истеъмол қилса, бу яхшиликка олиб келмайди. Юрак икки томонлама берилаётган дориларни кўтара олмаслиги мумкин.

**ГИЁҲВАНДЛАРНИ ДАВОЛАСА БЎЛАДИМИ?**

Одатда бундай беморлар ҳам руҳан, ҳам жисмонан бу дориларга қарам бўлиб қолади. Шифокорлар унинг жисмоний қарамлигини йўқотади, лекин руҳий қарамлигини йўқота олмайди. Шунинг учун даволангандан кейин ҳеч ким бу йўлга яна қайтмаслигига кафолат бермайди. Бемор руҳий тушкунликка тушса, иродасизлик қилса, яна қайтиши мумкин.

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, бундай иллат таъсирига тушмаслик учун инсон, аввало, соғлом турмуш тарзига амал қилиши ва иродали бўлиши зарур. Бундай моддаларни мутлақо истеъмол қилмаслик керак. Зеро, инсон учун саломатликдан азизроқ неъмат йўқ.

**Гулнозхон ҒОҒУРОВА,**  
**Фарғона вилояти ИИБ Тиббий-бўлими поликлиникаси шифокори.**





Salomatlik saboqlari

## GAYMORIT: alomati, sababi va davolash usullari


Kuz oxirlab, harorat pasayishi natijasida mavsumiy kasalliklar xavfi oshadi. Oddiy misol, sochimizni yaxshi quritmasdan ko'chaga shoshilishimiz oqibati yuqori nafas yo'llarining shamollashiga olib keladi. Gaymorit ana shunday kasallik hisoblanadi. IIV Markaziy poliklinikasi lor-shifokori Murod Sagdullayev gaymoritning alomatlarini, kelib chiqish sabablari, oldini olish va davolash xususida so'z yuritadi.

– Gaymorit – paranazal (burun yon, yuqori jag' bo'shlig'i) sinus shilliq qavatining juda keng tarqalgan yallig'lanish kasalligi bo'lib, odatda ularda yiringli sekretsialar to'planadi. Shuni aytish kerakki, burun va paranazal sinus kasalliklari yuqori nafas yo'llarining eng keng tarqalgan patologiyasi hisoblanadi. Uning kechishi og'irligiga qarab, o'tkir va surunkali turlarga bo'linadi. Gaymorit ko'pincha kuz-qish davrida, inson tanasi zaiflashganda va kasallikni qo'zg'atuvchi bakteriyalarga qarshi tura olmaganida aniqlanadi.

Ushbu kasallik bog'cha yoshidagi bolalarda uchramaydi. Chunki kichkintoylarda 7–8 yoshga kelibgina gaymor bo'shlig'i hosil bo'ladi. Bu xastalik asosan o'smir yoshidagi yigit-qizlarda va 30–50 yosh atrofidagi insonlarda kuzatiladi.

Odatda ushbu kasallik

bilan og'riyotgan bemorning peshona, ko'z atroflari, burun yon tomonlari va jag' qismida qattiq og'riq kuzatiladi. Ayniqsa, pastga egilganda og'riq yanada kuchayadi. Shuningdek, burundan nafas olishdagi muammolar, yallig'langan sinuslardagi shishlar, hid bilmaslik, uyquning buzilishi, kechasi va ertalab kuchayadigan quruq refleksli yo'tal, burundan yiring oqishi, doimiy bosh og'rig'i hamda tana haroratining ko'tarilishi ushbu kasallikning asosiy belgilari hisoblanadi.



Shu o'rinda yuqori jag' tishlari kariyesi, rinit (burun yo'llari shilliq qavati shamollashi) bilan kechuvchi allergik reaksiyalar, burun devorining deformatsiyasi (qiyshayishi) va natijada sinusda havo aylanishi buzilishi, surunkali infeksiyalar – faringit (halqum shamollashi), tonsillit kabi kasalliklarni davolamaslik ham gaymoritni keltirib chiqarishi mumkinligini aytib o'tish joiz.

O'tkir gaymorit gripp belgilari fonida rivojlanadi. Aromatlari isitma, bo'g'imlardagi, yuqori jag' va burun



sohasidagi og'riqlar, kuchli tumov, bosh og'rig'i, ko'z sohasidagi og'riqlar ko'rinishida bo'ladi.

Ayni paytda gaymorit antibiotiklar yordamida, shilliq ajralishini sekinlashtiruvchilar, burun bo'shliqlarini yuvish, burun bo'shliqlarini teshish, gaymorotomiya (bo'shliqlarni tozalash uchun o'tkaziladi) singari usullar bilan davolanadi.

Gaymorotomiya – og'ir hollarda gaymor bo'shlig'ini sanatsiya qilish va yiringli massa, poliplar, zamburug' va boshqa infeksiyalardan

tozalash uchun qo'llaniladi. Bu amaliyot o'ta samarali, murakkab emas va ortiqcha asoratlar qoldirmaydi.

Kasallikning oldini olish uchun o'z vaqtida stomatolog ko'rigidan o'tib turing, sovuq havoda ko'p yurmang, bosh kiyimsiz ko'chaga chiqmang, shamollash va grippni o'z vaqtida davolang. Sport bilan, hech bo'limganda, kuniga 10–20 daqiqa shug'ullaning.

**Gulnoza  
TURG'UNBOYEVA  
yozib oldi.**

## ЧТО ВЫ ЗНАЕТЕ О САХАРНОМ ДИАБЕТЕ?

14 ноября – Всемирный день борьбы с диабетом. Отмечается ежегодно под эгидой ООН в соответствии с резолюцией Генеральной Ассамблеи от 20 декабря 2006 года.

Сахарный диабет – нарушение обмена веществ, характеризующееся повышением содержания сахара в крови, которое может возникнуть в любом возрасте. По данным ВОЗ, число страдающих диабетом в мире за последние 40 лет выросло в четыре раза.

Причиной диабета является сбой в обмене веществ на клеточном уровне. Чаще всего он связан с гормоном, отвечающим за доставку глюкозы в клетки, нуждающиеся в энергии. Если сахар не попадает по месту назначения, его концентрация в крови возрастает, что негативно отражается в первую очередь на сосудах и нервной системе.

Выделяют два типа заболевания:

- 1-й тип – врожденное или приобретенное нарушение выработки инсулина поджелудочной железой вследствие аутоиммунного процесса, инфекционного заболевания, злокачественных новообразований в органе;

- 2-й тип – приобретенное нарушение восприимчивости клеток к инсулину.

Специалисты особенно отмечают рост заболеваемости сахарным диабетом 2-го типа, доля которого составляет более 85% всех случаев.

Несахарный диабет (бывает и такой) встречается редко. Он связан с нарушением работы ги-



пофиза и гипоталамуса. Недостаток продуцируемых ими гормонов негативно сказывается на работе почек.

Диабет без соответствующего лечения может привести к таким осложнениям, как слепота, ампутация конечности, почечная недостаточность, инфаркт, инсульт.

Опасность диабета заключается в том, что поначалу болезнь никак не проявляет себя. Необходимо учитывать, что в группе риска находятся люди, у которых этой болезнью страдают родители, братья и сестры. Таким пациентам следует хотя бы раз в год определять уровень сахара (глюкозы) в крови натошак.


Если своевременно узнать о риске возникновения болезни, то можно принять меры к ее предотвращению. Во многих случаях из-

менение образа жизни останавливает или затормаживает развитие сахарного диабета второго типа.

Для профилактики или отсрочивания диабета второго типа эффективны меры по поддержанию правильного образа жизни.

**Рекомендуется:**  
добиться здорового веса тела и поддерживать его;  
быть физически активным;  
воздерживаться от употребления табака, алкоголя;  
придерживаться правильного питания – уменьшать потребление сахара, насыщенных жиров;  
заменить сладости здоровой пищей (например, вместо привычной шоколадки лучше съесть небольшое количество сухофруктов, цельнозернового печенья).

Подготовил Виталий КАН.





■ Самаркандская область

## НА ПУТИ К НОВЫМ ПОБЕДАМ

**В столице Саудовской Аравии Эр-Рияде завершились третьи Всемирные игры боевых единоборств «World Combat Games 2023».**



физической форме, – рассказывает Ф. Рузиев.

Спортом Фуркат Рузиев занимается с 12 лет. Сначала посещал секцию боевого самбо, затем рукопашного боя. Первая победа не заставила долго ждать. На чемпионате республики среди юниоров он занял первое место. Она вселила уверенность, юноша все больше увлекся спортом и после школы продолжил обучение в специализированном колледже по подготовке олимпийского резерва. Затем были годы учебы в Самаркандском государственном университете на факультете физического воспитания. После вуза в 2017 году наш герой встал в строй сотрудников органов внутренних дел.

– Мой день начинается с развода, где собирается весь личный состав группы, – говорит старший лейтенант.

– Нужно сказать, что сотрудники спецназа уделяют много времени усердным тренировкам. С каждым днем упражнения усложняются. Кувырки, например, развивают чувство ориентации в пространстве. Отжимания, армейские выпрыгивания, подтягивания – все это не просто держит организм в тонусе, но и тренирует выносливость и взрывную силу.

Еще одна обязательная составляющая – отработка приемов рукопашного боя и работа с оружием. В очередной раз, приходя на полигон, ребята выкладываются на все сто. По-другому в подразделении нельзя.

Победа старшего лейтенанта Фурката Рузиева – итог многолетнего ежедневного труда. Наш герой не собирается останавливаться на достигнутом и стремится к новым победам.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.

В турнире по самбо командир группы мобильного отряда особого назначения УВД Самаркандской области старший лейтенант Фуркат Рузиев занял первое место.

– Победа досталась нелегко, – признается чемпион. – Конкуренция была сильной, на Всемирных играх боевых единоборств приняли участие 80 стран, в медальном зачете победила сборная Украины, у которой 53 награды.

Старший лейтенант Фуркат Рузиев – пятикратный чемпион мира и четырехкратный чемпион Азии. В его копилке достижений десятки медалей и кубков с чемпионатов из Казахстана, Японии, России, Кыргызстана, Сербии и не только.

– За каждой победой стоит колоссальный труд и многочасовые тренировки. Благо профессия позволяет и обязывает всех сотрудников спецгруппы быть в хорошей



KODZAEV ASLANBEK  
AIN

RUZIEV FURKAT  
UZB

AMAYA STAMPONE PAUL ANDERSSON  
VEN

DIANI BADREDDINE  
MAR

## MUNAJJIMLAR BASHORATI

(20-16-noyabr)



**Qo'y.** Odamlar bilan munosabat o'rnatishda va ish joyingizda faolroq bo'ling. Har jabhada aql-zakovat va yaxshi did egasi ekaningizni isbotlang. Ushbu hafta kutilmagan pul tushumi kayfiyatingizni ko'taradi. Oila a'zolaringizga alohida vaqt ajratib, dam olish kunlari ular bilan tabiat qo'yniga sayrga chiqing.



**Buzoq.** Bu hafta hayotingizda ikkilanish, ishonchsizlik, yolg'izlik, atrofdagilarning sizni noto'g'ri tushunishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Sizga ushbu vaziyatdan chiqib ketishga faqat iroda kuchi va sog'lom tafakkur yordam bera oladi. Bu davrni yengib o'tishda yaqin kishilar yelkadosh bo'lishadi.



**Egizaklar.** Hafta o'rtalarida ish va oilada muayyan muvaffaqiyatlar kuzatilishi kutilmoqda. Yaqinlaringiz bilan muloqot qilishda xushmuomalilikni unutmang, aks holda, kutilmagan noo'rin tortishuvlar kelib chiqadi. Salbiy hissiyotlar salomatlikka aks ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dam olish kunlari miriqib uxlab olishga harakat qiling.



**Qisqichbaqa.** Ichki sezish hissi ogohlantirayotgan belgilarga bee'tibor bo'lmang. Qat'iyat va maqsad sari intilish tufayli ishda, moliyaviy masalalarda va shaxsiy munosabatlarda muvaffaqiyatga erishasiz. Biroq me'yordan ortiq kuch va g'ayrat sarflamang, bu sog'liqqa jiddiy zarar yetkazishi mumkin.



**Arslon.** Hafta boshi ish jarayonlari – turli muzokaralar, uchrashuvlar, foydali aloqalar o'rnatish uchun qulay davr. Chorshanba va payshanba kunlari shovqinli va quvnoq davralardan uzoq turing. Yakshanbani ruhan yengillashish va miriqib dam olishga bag'ishlagan ma'qul.



**Parizod.** Bu haftani yangi ishlarni rejalashtirish uchun sarflang. Imkoniyatlaringizdan kelib chiqib, muhtojlarga xayr-ehson qiling, hamdardlik va marhamat ko'rsating. Bu sizni shaxs sifatida yuksaltiradi. Ish faoliyatingiz bilan xotirjam shug'ullaning, oila o'chog'idagi alangani maromida ushlab turing.



**Tarozi.** Ushbu davrda jamiyatdagi mavqeingiz ortishi, shuningdek, hamkasblar va yaqin kishilar bilan xayrli va uyg'un munosabatlarning rivojlanishi kutilmoqda. Hafta so'ngida dam olish, sayohat qilish yoki ko'ngilochar maskanlarga borish foydadan xoli bo'lmaydi.



**Chayon.** Sizdan kasbiy soha va biznesda o'z ustida ishlash talab etiladi. Zo'r g'ayrat va ishtiyoq bilan mehnat qiling, ijodiy g'oyalarni hayotga tatbiq eting. Uy-ro'zg'or ishlarini keyinga qoldirmang. Nima bilan shug'ullansangiz ham, har qanday olingan natijadan quvonishga harakat qiling.



**O'qotar.** Hamkasblar va oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Iltimasangiz ham, istamasangiz ham xushmuomala va nazokatli bo'lishingizga to'g'ri keladi. Shu tariqa siz sabrsizlik va qahr-g'azab namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymay, mazkur vaziyatdan yaxshilik bilan chiqib ketish imkoniyatiga ega bo'lasiz.



**Tog' echkisi.** Asosiy vazifa va majburiyatlaringizni unutib qo'ymang. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun yanada faol harakat qiling. Siz uchun seshanba eng samarali kun bo'lib, foydali va istiqbolli ishlarga qo'l urasiz. Bunda hech ikkilanmay, bor iste'dodingizni ishga soling. Hafta so'ngida rejada bo'lmagan xarajatlar kuzatilishi mumkin.



**Qovg'a.** Haftaning birinchi yarmida og'ir yoki davomli mehnatdan imkon qadar yiroq turing. Chunki bu vaqtda salomatligingiz pand berishi mumkin. Keyingi kunlar moliyaviy daromad va ish faoliyatidagi o'sishni va'da qilmoqda. Dam olish kunlarini oila davrasida yoki tabiat qo'ynida o'tkazishga harakat qiling.



**Baliq.** Ko'proq izlanishda bo'ling, imkon qadar takomillashish va rivojlanish sari olg'a qadam tashlang. Hamkasblar orasidan munosib do'stlarni topishga intiling, shunda ishdagi ko'pgina masalalarning hal etilishi muvaffaqiyatli kechadi.



# XO'JA BOG'BON OTA ZIYORATGOHI



**F**orish tumanidagi Xo'ja Bog'bon ota ziyoratgohini ikki tomondan baland tog'lar o'rab turadi. O't-o'lanlar va dov-daraxtlarga yashillik baxsh etguvchi buloqlar tufayli mazkur go'sha erta bahordan kech kuzga qadar ko'rkam qiyofa kasb etadi. Aytishlaricha, o'tmishda bu joyda islom ilmini chuqur egallagan ibn Muhammad al-Vosit bir muddat istiqomat qilgan va tevarakda yashovchilarga saboq bergan, daraxtlar ko'kartirgan.



So'nggi yillarda Yevropa davlatlari, Rossiya va qo'shni respublikalardan Forishga borguvchi sayyohlar soni ortgan. Ularni mazkur manzilga chorlayotgan kuch Nurota tog'i, hudud tabiati hamda Aydarko'l jozibasidir. Chet elliklar albatta keladigan manzillar sirasiga Xo'ja Bog'bon ota ziyoratgohi ham kiradi.

Darhaqiqat, ziyoratgohda bir necha asrlik marralarni bosib o'tganligi yaqqol sezilib turuvchi tut daraxtlarining ulkan bo'laklariga ko'zingiz tushadi. Ular o'rnida unib chiqqan tutlar esa hayotning bardavomligiga ishora qiladi, go'yo. Ziyoratgohning toqqa tutash qismida bir kishi sig'ar-sig'mas yo'laksimon g'or bor. Xo'ja Bog'bon otaga kelganlar ana shu mitti g'orga kirib, niyatlarini bayon qiladilar. Sal quyida toshlar bag'rini yirtib chiqqan buloqlar ajib taassurot uyg'otadi. Ularning zilol suvi ariqlarni to'ldirgancha tevarakdagi dov-daraxtlarni sug'oradi, so'ng hududdagi mo'jaz havzaga quyiladi. Bu havzani ziyoratchilar ora-sira non bo'laklari bilan siylaydigan baliqlar makon tutgan. Pirovardida buloq suvi atrofda qishloqlar tomon intiladi va ekinzorlarni yashnatadi.

Mazkur go'shada bo'lsangiz, tog' qo'ynidagi ulkan daraxtlar soyasida kundalik charchoqlarni unuta boshlaysiz, doim hukm suradigan sukunat ko'nglingizga osoyish bag'ishlaydi. Aytgancha, ziyoratgohning kirish qismida xarsang bor. Aytishlaricha, ana shu toshdan uch marta sirpangan inson dardlaridan forig' bo'lar emish. Shundanmi, xarsangning sirti silliq ko'rinish olgan.

Mamlakatimiz istiqolga erishgach, bu joy ta'mirlanib, ziyoratchi-yu sayyohlarga qator qulayliklar yaratildi. Qisqasi, ruhi orom olishini istaganlar uchun Xo'ja Bog'bon ota eng yaxshi maskan.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o'z muxbirimiz.

*Jizzax viloyati.*

## XAYRLI ISH – BARDAVOM



«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida IIV Surxondaryo akademik litseyida «Har bir xodimga – bir nihol» shiori ostida ta'lim muassasasi hududiga manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Ko'chatlarni o'tqazishda litsey o'quvchilari ham ko'maklashishdi.



Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxonada manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangiashar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №V-3410.

Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 50466 nusxada chop etildi.

**Obuna raqamlari:**

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ:**

100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.